Aminjonova Charosxon Akmalovna

TALABALARDA TABIIY-ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

MONOGRAFIYA

“KAMOLOT” nashriyoti

Buxoro-2026

UO‘K:

KBK:

N32

Aminjonova Charosxon Akmalovna. Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish / [Matn]: Monografiya / A.Ch.Aminjonova - Buxoro : “Sharq Buxoro” MCHJning Kamolot nashriyoti, 2027. - 100 b.

Taqrizchilar:

R.R. Raxmonov - Buxoro davlat pedagogika instituti biologiya kafedrasi dotsenti

M.I. Mustafoyeva - Buxoro davlat tibbiyot instituti Tibbiy biologiya kafedrasi dotsenti

ISBN:

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutining 2026-yil “ ”-noyabrdagi “ ”-sonli buyrug‘iga asosan monografiya sifatida nashrga tavsiya etildi.

© “KAMOLOT” nashriyoti
© Aminjonova Charosxon Akmalovna

MUNDARIJA:

Kirish 4
I Bob. Ilmiy dunyoqarash va tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari 7
II Bob. Talabalarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirilishiga ta'sir etuvchi omillar 22
III Bob. Talabalarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish yo'llari 63
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 89

KIRISH

Butun dunyo miqyosida ta’lim tizimini isloh qilishning muhim omillaridan biri sifatida o’qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyati samaradorligini oshirish, jumladan, ta’lim tizimini integratsiyalashuvi, biologik ta’limning eng asosiy o’zagi hisoblangan talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish, o’quv amaliyotlari o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini va faolligini oshirish borasidagi harakatlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dunyo miqyosida o’qitishning jadallashtirilgan texnologiyalari va texnikasi, usullari va vositalari, jumladan, an’anaviy predmetlashtirilgan, sharoitiga chuqurlashuv va intensivlashuv, shaxsiy emotsional-hissiy munosabat yo’nalishlarida tadqiqotlar olib borish, mazkur izlanishlarda biologiya bo’yicha o’qituvchining funksionalligi va kommunikativ ta’sirini oshirish jarayonlariga asosiy obyekt sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o’quv-metodik ta’minotini yaxshilash, mutaxassis kadrlar tayyorlash sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida professor-o’qituvchilarning ilg’or ta’lim texnologiyalari va o’qitish usullarini tatbiq etish bo’yicha tashabbuskorligini oshirish, shuningdek o’quv amaliyotlarini tashkil etishning faol usullarini joriy etish imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari biologiya o’qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyati mazmunini ilg’or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish zarurati mavjud.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan barcha sohalarda bo’lgani kabi ta’lim tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O’zbekitson Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to’g’risida”gi qonunlarida ta’lim tizimini zamonaviy talablar darajasiga ko’tarish va ta’limning uzluksizligini ta’minlashning asosiy maqsadlari va shart-sharoitlari belgilab berildi. Hozirgi kunda faqat pedagogning nazariy bilimlariga asoslangan ta’lim yaxshi samara bermasligi hech kimga sir emas. Shu jumladan,

bilimlarni amaliyotda mustaqil tarzda qo’llash zaruriyati tug’iladi. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llab, talabalarni qobiliyati va imkoniyatlarini to’la-to’kis namoyon etishlari va butun kuch-g’ayratlarini bilim olishga sarflashlari uchun imkon beradigan o’quv mashg’ulotlarini yaratish zarur.

Shu sababli ham “Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish” dolzarb mavzu hisoblanadi. Har qanday jamiyatning yuksak darajada rivojlanishi ilmiy-texnik taraqqiyotni hisobga olgan holda, ta’lim tizimini takomillashtirish va mutaxassislar intellektual salohiyatining oshirilishini taqozo qiladi. Bu masalani hal qilishda biologiya fanining o’rni beqiyosdir. Ayniqsa, biologiya fanini rivojlantirish tarixida ehtimoliy-statitsik g’oya va tushunchalar muhim o’rin tutib, ular talabalarning ilmiy dunyoqarashi hamda olamning zamonaviy manzarasini shakllantirishda alohida o’rin tutadi.

O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini shaxs, davlat va jamiyatning dolzarb istiqboliy ehtiyojlariga muvofiqlashtirish, biologiyadan tashkil etiladigan bilimlarni zamon talabiga mos tarzda olib borish kabi ustuvor vazifalar belgilanib, bu borada biologiya o’qitishning kasbiy-pedagogik shart-sharoitlari va talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning metodik tizimini tahlil qilish, biologiya o’qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishga yo’naltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, uning mazmun va shakl jihatdan tubdan yangilash bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida yuritilmoqda hamda uzluksiz ta’lim tizimida sifat jihatdan yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Bunday sharoitda ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, xususan, interfaol o‘qitish metodlarini keng joriy etish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Prezidentimizning “O’zbekiston yoshlari forumi”dagi

murojaatnomasida matematika, kimyo, biologiya, geologiya fanlarini takomillashtirish to’g’risidagi fikrlari va mazkur faoliyatga doir boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur monografiya orqali talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish orqali talabalarni mustaqil izlanishlarini ta’minlaydigan amaliyotlar tashkil etildi. O’quv darslarini tashkil etish masalalari aks etgan o’quv qo’llanmalar, pisa topshiriqlar, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish tadbiq etildi. O’quv darslarining samarali bo’lishi uchun zarur ma’lumotlar, ijobiy tavsiyalar, samarali natijalarni ko’zlagan holatda talim-tarbiya jarayoniga yondashildi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ushbu dastur biologiya ta’lim yo’nalishi talabalarini tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish orqali talabalarni mustaqil izlanishini va faolligini oshiradi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Mazkur monografiya asosiy yo‘nalishi ham yuqorida keltirgan maqsad va vazifalarga qaratilgan bo‘lib, turli fanlardan ayrim mavzularni o‘ziga xos yondashuvlar asosida o‘tish yo‘llari va vositalari keltirilganki, buni o‘rganib chiqish ta’lim-tarbiya tizimida ishlovchi har bir mutaxassis uchun foydadan holi emas.

I Bob. ILMIY DUNYOQARASH VA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Aqliy ta’lim-tarbiya - talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismi

Professor-o’qituvchilarning eng muhim vazifasi –
yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va
ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.
SH.M.Mirziyoyev

Mamlakatimizda hozirgi paytda yoshlarga ta’lim va tarbiya berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim-tarbiya hamisha jamiyat taraqqiyotining asosi bo’lgan. Bugungi kunda, O’zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy ta’lim-tarbiyani berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20-aprel 2017-yil 2909 sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to’g’risidagi qarori e’lon qilindi. Ushbu farmonda Oliy ta’lim tizimida o’z yo’nalishlari bo’yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o’rnatish, o’quv jarayoniga ilg’or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalarida stajirovkadan o’tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar haqida ma’lumot berilgan. 1997-yilda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmunida ham yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri ekanligiga urg’u beriladi. Yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo’lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo’lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning

mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini bilishga va baholay olishga imkon beradi.

“Tabiiy-ilmiy dunyoqarash” atamasining mazmun-mohiyati biologiya fanlari ta’limining praksiologik (amaliy, samarador, ratsional) yo’nalishi hamda didaktik maqsadlarini (motivasion-qadriyatli, kognitiv-faoliyatli, shaxsiy-refleksiv) identiv xususiyatlarga ko’ra integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.[1]

Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish jarayoni, axborot ustida mustaqil ishlash, refleksiv nuqtai nazarni qaror toptirish, vitagen va subyektiv tajribani shakllantirish, individual va differensial ta’lim texnologiyalarining integrativ xossalarini, ijodiy, emosional-rag’batlovchi, variativ o’quv topshiriqlarini aniqlashtirish asosida takomillashtirildi.

Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning metodik tuzilmasi motivasion, kognitiv, amaliy-faoliyatli kabi o’qitish vositalari, metodlari va shakllarini bosqichli va maqsadli loyihalash yondashuvi, keys-to’plam, netvorking, mahorat darslari asosida takomillashtirildi.

Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga yo’naltirilgan mezonlar (nostandart, kreativ o’quv va test topshiriqlari) tarkibi tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholashga oid talablarni (refleksiv baholash, o’zlashtirgan bilimlarni amaliyotda qo’llash, innovasion faoliyat) belgilash asosida aniqlangan.

Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning metodik tuzilmasi, o’qitish vositalari, metodlari va shakllarini bosqichli va maqsadli loyihalash oid takliflardan Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2009-yil 26-fevraldagi 51-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan “Tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning metodikasi” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan. Darslikning “Metodika turlari” bo’limi talabalarning dunyoqarashni

[1] Raximov A.K. Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (“Evolyusion ta’limot” fanini o’qitish misolida). DSc dis… avtoref. – T.: TDPU, 2019. – 28 b.

rivojlantirish jarayonlarining o’qitish vositalari, metodlari va shakllarini bosqichli va maqsadli loyihalash oid bilim, ko’nikma va malakalari darajasini oshirishga xizmat qilgan. “Metod” atamasi yunoncha “methodos” tadqiqot yoki bilish yo’li, nazariya, ta’limot so’zidan kelib chiqqan bo’lib, tadqiqot yo’li, haqiqatga intilish, bilish, harakat qilish yo’llari, kutilayotgan natijaga erishish usuli ma’nosini anglatadi. Metod deganda voqelikni amaliy yoki nazariy o’zlashtirish usullari tushuniladi. Faoliyatning turli jabhalarini o’rganishni qamrab olgani holda ilmiy bilish va uning usullari metodikaning asosiy yo’nalishidir. Unda ta’lim va tarbiya berish usullari asosiy o’rinda turadi. Odatda metodika (uslubiyat) deganda ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan tushuniladi.

Dunyoqarash (arab. - jahon, olam + qarash) – ta’lim oluvchilarning dunyo va insonning undagi o’rni, o’z atrofidagi voqelik va o’z-o’ziga munosabatiga bo’lgan umumiy qarashlar tizimi. Dunyoqarash shaxsning e’tiqodi, ideali, bilish tamoyillarini ifodalaydi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo’lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, subyektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to’laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg’usiga ega bo’lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo’lga qo’yilishi, uning turli yo’nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o’z-o’zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o’qitilishi yo’lga qo’yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o’zlashtirilishi muhim o’rin tutadi. O’z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O’z mazmunida ezgu g’oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs

qiyofasida namoyon bo’layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o’z mohiyatiga ko’ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo’lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi.

Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o’zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g’oyalar yotadi. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o’rin tutadi.

Aqliy ta’lim-tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to’g’risidagi bilimlarni berish, uning aqliy bilish qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat bo’lib, uni samarali yo’lga qo’yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Aqliy ta’lim-tarbiya talabalarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo’lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko’nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Aqliy ta’lim-tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

1) Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish;

2) Ularda ilmiy bilimlarni o’zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish;

3) Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish;

4) Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg’usini shakllantirish;

5) Bilimlarni o’zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlardan: nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol va xususiyatlardan: aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o’z fikrini asoslash, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarishlarni rivojlantirish.

Aqliy ta’lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur rivojlanadi. Tafakkur bu, ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to’laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli hisoblanadi. Manbalarning ko’rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo’lib, quyidagi belgilarga ko’ra aniqlanishi mumkin:

1) Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi;

2) Mavjud ilmiy bilimlarni o’zlashtirib olish jarayoni;

3) Fikrlash ko’nikmasiga egalik;

4) Bilimlarni egallashga bo’lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e’tiqod o’ziga xos o’rin tutadi. Ilmiy qarash bu, muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g’oya bo’lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o’zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. Talabalarni ijodiy fikrlashga o’rgatish, ixtirochilik ko’nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma’lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi.

Aqliy ta’lim-tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

Ta’lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning o’zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta’sirida shaxs kamolotini ta’minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim muassasalarida o’quv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asoslarining talabalar tomonidan chuqur o’zlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni

shakllantirishga yordam beradi. O’qituvchilar talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishi xususida g’amxo’rlik qila borib, doimiy ravishda ular tomonidan o’zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo’llay olinishiga e’tibor berishlari zarur. Fan o’qituvchilari u yoki bu qonuniyatlar va ularning mohiyati bilan talabalarni tanishtirib borar ekanlar, talabalarga turli hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalanish yoki ularga tayanib ish ko’rish lozimligini tushuntirib borishlari kerak.

Dunyoqarashning shakllanishida jamiyatda ustuvor o’rin tutgan mafkuraviy g’oyalar va ularning mohiyatidan to’laqonli xabardor bo’lish o’ziga xos ahamiyatga ega. Shu bois ta’lim muassasalarida yo’lga qo’yilayotgan ta’lim-tarbiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar asoslari mohiyati bilan talabalarni tanishtirish jarayonida O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida bosh mezon sifatida e’tirof etilgan milliy istiqlol g’oyasi va mafkura mazmunida ilgari surilgan qarashlar xususida batafsil ma’lumotlar berib borish, ularga nisbatan talabalarda muayyan munosabatni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali yo’l hisoblanadi.

Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga yo’naltirilgan mezonlar, tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash, individual va differensial ta’lim texnologiyalarining integrativ xossalariga oid taklif va tavsiyalardan A-1-141 raqamli “Oliy ta’lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi uchun modulli Web texnologiya asosida elektron axborot-ta’lim resurslarini yaratish va amaliyotga joriy etish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4884-son qarorida keltirilgan Milliy o’quv dasturini joriy

qilish bo’yicha tajriba-sinovni lozim darajada o’tkazish maqsadida Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markaziga quyidagi vakolatlar berilgan:[2]

1. Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standarti, tayanch va variativ o’quv rejalari hamda dasturlarini ishlab chiqish;

2. Xalq ta’limi vazirligi buyurtmasiga asosan muallif va tuzuvchilarni tanlash hamda darsliklar va o’qituvchilar uchun metodik qo’llanmalarning yagona maketlarini yaratish;

3. Yaratilgan darsliklar va o’qituvchilar uchun metodik qo’llanmalarni ekspertiza qilish, ularni ta’lim tizimida qo’llash bo’yicha xulosa berish;

4. O’quv reja, dasturlar, yaratilgan darslik va o’qituvchilar uchun metodik qo’llanmalarni tajriba-sinovdan o’tkazish ishlariga rahbarlik qilish;

5. Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-yanvarga qadar barcha ta’lim sohasidagi tajribani, shu jumladan, o’quv dasturlari, darsliklari, o’qitish metodikalari va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini xorijga xizmat safarini tashkil etgan holda o’rganib chiqsin;

6. Xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish jarayonini “Hayot davomida o’qish” tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirishni nazarda tutuvchi tizimga aylantirsin;

7. Xalq ta’limi xodimlarining kasbiy ehtiyojlarini tashxis qilish asosida ularning individual rivojlanish dasturini ishlab chiqish va dasturga muvofiq malakasini oshirish tartibini amaliyotga kiritsin;

8. Xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish jarayoniga kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy qilsin;

9. Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish, har bir xodimning malaka oshirish jarayonlarini monitoring qilish va

[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi PQ-4884-son qarori.

shaxsiy hisobini yuritish imkoniyatini ta’minlovchi “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasini ishga tushirilsin.

Markazlarning asosiy vazifalari etib, quyidagilar belgilansin:

- Talaba-yoshlarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, ularning barqaror ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta’minlash;

- O’smirlarni ijtimoiy reabilitasiya qilish, turli xil zo’ravonlik ko’rinishlarining oldini olish, suisidal holatlarga moyilligi bo’lgan talabalarni barvaqt aniqlash va ularga ijtimoiy-psixologik yordam ko’rsatish;

- Xalq ta’limi tizimida kasb-hunarga yo’naltirish va psixologik-pedagogik xizmat ko’rsatish, ilg’or tajribalarga asoslangan kasb-hunarga yo’naltirishning zamonaviy shakl va uslublarini joriy etish;

- Maktablarda psixologik xizmatni takomillashtirish, psixologlarni metodik qo’llab-quvvatlash va professional rivojlantirish, xalq ta’limi xodimlarining pedagogik faoliyatga shaxsiy muvofiqligini o’rganish;

- Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi Sog’liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda psixologiya sohasi bo’yicha kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalariga o’quv rejalari va ta’lim dasturlarini ilg’or xorijiy tajribani inobatga olgan holda takomillashtirishda, ularni ish beruvchilarning talablariga moslashtirishda ko’maklashsin;

- Professional ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning metodik ta’minotini mustahkamlash, ularni yangi ta’lim resurslari bilan ta’minlab borish imkoniyatini beradigan alohida elektron platformani ishlab chiqsin va ta’lim dasturlari, o’qitish materiallari hamda boshqa uslubiy qo’llanmalardan masofaviy tarzda foydalanish imkoniyatini yaratsin;

- Professional ta’lim muassasalari guruh rahbarlarini tayyorlash uchun talabalar bilan ishlash, ular psixologiyasini o’rganish va metodik ta’minlashga qaratilgan qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etsin.

Pedagog va talabalar orasidagi ta’lim tizimida olib borilayotgan ishlar bo’yicha ma’lumot ularga intellektual salohiyatini oshirish, qobiliyatlarini

rivojlantirish va ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlari bo’yicha “Ustoz-shogird” tizimida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug’ullanishlari uchun yetarli sharoitlar yaratilib, talabalarning har biriga ilmiy darajali hamda ilmiy tadqiqot ishlari bo’yicha yetarli bilimga va malakaga ega bo’lgan professor-o’qituvchilar ilmiy rahbar etib biriktirilgan.

Iqtidorli talabalarning ta’limdan tashqari bo’sh vaqtini to’g’ri va oqilona tashkil etish maqsadida ushbu to’garakda kafedraning professor-o’qituvchilari bugungi kunda talabalarni ilg’or pedogogik texnologiyalarning elementlari bo’lgan interfaol metodlari bilan tanishtirish va ulardan dars jarayonida foydalanish bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirish bo’yicha dolzarb bo’lgan mavzular asosida nazariy va amaliy mashg’ulotlar olib borildi.

Talabalarni dunyoqarashini rivojlantirish jarayonida pedagog iqtidorli talabalar bilan ishlash bo’yicha quyidagi o’qitish shakllaridan foydalaniladi:

• ma’ruzalar, amaliy mashg’ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

• davra suhbatlari (ko’rilayotgan loyiha yechimlari bo’yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

• bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo’yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish);

• trening mashg’ulotlar (oliy ta’lim darslarida innovatsion metod va vositalardan foydalanish tajribasiga ega bo’lish).

Talabalarni dunyoqarashini rivojlantirish jarayonida o’rganuvchi va izlanuvchi talaba yoshlarimizni quyidagi materiallar bilan tanishtirish lozim:

• ilg’or pedagogik texnologiyaning elementlari;

• dars jarayonida qo’llaniladigan ta’lim metodlari;

• an’anaviy ta’lim metodlari;

• ta’lim jarayonida interfaol metodlar;

• an’anaviy va interfaol metodlarining afzalliklari va kamchiliklar bilan tanishishlari lozim.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko’p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo’llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko’p bo’lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Bahs-munozara”, “Keys-study”, “SWOT tahlili”, “Muammoli vaziyat”, “Yo’naltiruvchi matn”, “Loyiha”, “Rolli o’yinlar” kabi metodlarni qo’llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Metodika, qisqacha qilib aytganda, ma’lum bir fanni o’rganish, o’qitish metodlari to’g’risidagi ta’limot. Boshqacha aytganda metodika bu dars o’tishda o’qituvchiga qo’yiladigan talablarni realizatsiya qilishni amalga oshiradigan turli metodlarning majmuidir.

1.2. Talabalarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg’usini shakllantirish

Talabalarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg’usini shakllantirish “Milliy g’oya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish” o’quv qo’llanmasini yaratishda foydalanilgan. Natijada yosh avlodni har tomonlama barkamol va sog’lom qilib tarbiyalash bo’yicha o’quv ta’minoti yaratilgan, ta’lim muassasalarida ta’lim subyektlarining sog’lomlashtirish faoliyatini tizimli tashkil qilish jarayoni takomillashtirilgan.

Talabalarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg’usini shakllantirish, yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini keng targ’ib etish, har bir kishida o’z salomatligi uchun mas’ullik tuyg’usini shakllantirish bo’yicha tadqiqot xulosalari va tavsiyalaridan fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo’yicha Respublika kengashining tuman, shahar, viloyatlar miqyosidagi tadbirlarida foydalanilgan. Natijada, Samarqand, Navoiy, Jizzax, Toshkent viloyati va shahri mahallalarida yoshlarning sog’lom turmush tarziga bo’lgan e’tiqodini rivojlantirish, yoshlarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg’usini shakllantirish, ularning zararli odatlardan o’zini asrash malakalari va mas’uliyatini ta’minlashga erishilgan. [3]

Ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va talabalarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg’usini qo’llash avvalo pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizasiyalashni talab etadi. Chunki pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizasiyalashni amalga oshirmay turib qo’llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

[3] Mattiyev I.B. Talabalarda salomatlikni asrashga yo’naltirilgan tafakkurni shakllantirish // PhD dis avtoref. – T.: - 2019. – 25 b.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi.

Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining subyekti - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov alohida ta'kidlaganlaridek, «Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak». Shu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.[4]

Bizningcha, bu g'oyani ijtimoiy hayotning quyidagi komponentlari ro'yobga chiqarishi mumkin:

- faoliyat turlari (moddiy, amaliy ijtimoiy, ma'naviy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, san'at, siyosat, falsafa, fan va boshqalar);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy, ijtimoiy va tabiiy borliq (keyingi avlodlarga meros qilib qoldirilgan boyliklar).

[4] Rixsimboyev O.Q. Talabalar mustaqil ta'limini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni / "Iqtisodiy ta'lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari" // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma'ruza tezislari to'plami, - Toshkent. – 2015. – B. 17-19.

O’quv fani bo’yicha baholash talabalarda bilimlarni egallash bo’yicha o’z harakatlarini, ushbu ma’lumotlarni qanchalik bilimlari, tushunishlari, o’z faoliyat natijalarini baholay olish ko’nikmasini ishlab chiqishga qaratilgan.

Psixologiya o’qituvchisining baholovchi mushohadalari quyidagilarga taalluqli bo’lishi lozim:

- o’quv materialini bilish;

- bu materialni tushunish, bajarilgan topshiriqlar darajasi.

Turli-tuman omillarning dars o’tish metodini tanlashdagi o’rinlarini ierarxik tarzda joylashtiradigan bo’lsak, ko’pchilik psixologlar va pedagog olimlarning fikricha, birinchi o’rinda ta’limning maqsadi turadi. Aynan dars o’tish maqsadida biz nimaga erishishimiz lozimligi ifodalanadi, erishishimiz zarur bo’lgan natija belgilanadi. Ikkinchi o’rinda ta’limning motivatsiya darajasi turadi.

Motivatsiya – bu biologik jihatdan insonning irsiy va to’plangan tajribasi asosida individual va guruhiy ravishda ehtiyojlarini qondirishga yo’naltirilgan, undaydigan tuyg’u. Insonni o’qishga o’rganishga ham ana shu tuyg’u undaydi. O’qituvchi dars o’tish metodini tanlar ekan, albatta, o’quvchi, talabalardagi motivatsiya darajasiga e’tibor berish kerak.

Talabalarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini baholashda uning sifat va xususiyatlari emas, insonning psixik sifat va xususiyatlar haqidagi bilimlari baholanadi. Bilimlarga berilgan bahoni talabalarning rivojlanish shaxsi, intellekti, qobiliyatlariga berilgan baho va xarakteristikalar bilan almashtirish va aralashtirish mumkin emas. Ta’kidlash lozimki, talabaning ichki olamiga aralashmaslik huquqini ta’minlash oliygohdagi nafaqat psixologiya, balki barcha o’qituvchilarning muhim tamoyilidir.

Biz yoshlarning ba’zi mamlakatlardagi tengdoshlarimizdan tubdan farqlovchi bir jihatimiz bor. Biz bolajon xalqimizning oiladek qo’rg’oni bag’rida mahalla e’tiborida, qolaversa, davlatimiz g’amxo’rligidamiz. Umuman olganda, odamlarni bir-biridan u yoki bu xususiyati bilan farqlashda amal qilinadigan

mezonlarning turi benihoya ko’p. Lekin bitta xususiyat, qobiliyat borki u barcha xalqlarda insonlarni bir-biridan farqlashda, o’zaro solishtirishda va baholashda asosiy mezon bo’lib kelgan. Bu ham bo’lsa insoniylikdir. Yoshlarning irodasi, avvalo, shaxsning ijtimoiy faolligida, mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribasida va ta’lim jarayonida namoyon bo’ladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda “Ta’lim to’g’risida”gi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi mamlakatimiz yoshlari tarbiyasida muhim o’rin tutdi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va bunda qo’yilayotgan talablar mustaqil, erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirish, uning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etish hamda iqtidorli va iste’dodli yoshlarni izlab topishni ta’minlashga qaratilgan. Bu hujjatlar asosida yoshlarni bozor iqtisodi sharoitida oila, mahalla, o’quv maskanlari yordamida har tomonlama yuksak ma’naviyatli tadbirkor ishbilarmon shaxslar qilib tarbiyalash ko’zda tutiladi.[5]

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir. Bu haqida fikr yuritganda, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so’zlarini eslash joizdir.

Bu yorug’ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne’mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu intilishlar bilan yashaydi.

Oilada ma’naviy tarbiyaga, ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirilishiga e’tibor tobora kuchaymoqda. Ma’naviy barkamol inson deganda qanday inson tushuniladi? Birinchi galda dunyoqarashi, e’tiqodi, maslaklari shakllangan o’z fikriga ega bo’lgan odobli shaxs nazarda tutiladi.

“Oila, - deydi O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimov, hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas

[5] Zaripova N.E. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda oilaning ta’siri / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 167-171.

urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i".[6]

Ota-onalar bolalarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashlari uchun oilaviy hayotning barcha murakkabliklarini yengib o'tishga tayyor bo'lishlari lozim. Oilaviy hayotga tayyorgarlik o'zida hayotning tibbiy-biologik, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy, ijtimoiy-psixologik, an'anaviy, huquqiy, iqtisodiy jihatlarini mujassamlashtiruvchi jarayondir.

Oilaviy tarbiyaning murakkabligi yana shundaki, har bir oila o'ziga xos bir olam, jamiyatning o'ziga xos kichik uyushmasi bo'lib, tarbiya ishida o'z xususiyatlarini namoyon qiladi. Ota-onalar qanchalik ma'naviy boy, e'tiqodli va yuqori ma'lumotga ega bo'lsalar, shu darajada takomillashgan uslub orqali o'z farzandlarini barkamol shaxslar qilib tarbiyalaydilar. Aynan shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni oladi, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob qoidalarini ham egallab boradi.

Zero, mamlakatimiz birinchi Prezidenti Karimov I.A. ta'kidlaganlaridek, "... mustahkam oila va baxtli turmush, avvalambor, oila quradigan yoshlarning o'ziga, ularning aql-zakovati, ma'naviy fazilatlariga, oila, jamiyat oldidagi o'z burch va mas'uliyatlarini chuqur anglab yetishiga bog'liq, ilmu ma'rifat esa insonni yuksaklikka ko'taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma'rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi. Biz ana shu avlod uchun yashayapmiz. Biz kutayotgan avlod mana shu boylikni dunyodagi eng katta boylik deb bilsa, hayotini shunga baxshida etsa, bilingki, odamzod yorug' kunlarga erishishi muqarrar"dir.[7]

---

[6] Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-j. –T.: O'zbekiston. 1997. 384-b.

[7] Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir: O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligini 19 yilligi munosabati bilan ma'ruza // Xalq so'zi, 2011 yil 8 dekabr.

II Bob. TALABALARNING TABIIY-ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRILISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

2.1. Talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirishda mahorat mashg’ulotlarining o’rni

Hozirgi davrda o’quv jarayonini tashkil etish o’qituvchidan faqat chuqur bilimgina emas, balki pedagogik mahoratga ega bo’lishlarini, dars berishning turli metodlarini bilishni hamda o’z ustida tinmay ishlashni talab qiladi. Respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar o’sib kelayotgan yosh avlodda intellektual qobiliyatlar va kasbiy bilimlarni rivojlantirishni ko’zda tutadi. Bunday kelib chiqqan holda biologiya fanlarini o’qitish metodikasi fanining maqsadi - bo’lajak biologlarning ixtisoslik fanlaridan ta’lim berish metodikasi, oliy ta’lim tizimida o’qitish shakllari hamda o’qitishning ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalariga oid bilim va ko’nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning ta’lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik mahorat quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchining kompetensiyasi
2. Pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari
3. Pedagogik qobiliyat va pedagogik texnika

1. Ta’lim beruvchining kompetensiyasi

Buning uchun ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir pedagogning kompetensiyaga ega bo’lishi muhimdir. “Kompetensiya” tushunchasi lotincha ”competere” degan so’zdan olingan bo’lib, “loyiq”, “mos kelmoq” ma’nosini beradi. Kompetensiya - olingan nazariy bilim, amaliy ko’nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga qo’llay olish qobiliyati va layoqati.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy ko’nikma, malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

Kompetentlilik deganda, aniq vaziyatda kompetensiyani namoyon qilish tushuniladi. Kompetentlilik - shaxsning bilim, ko’nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqei va o’ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi tushuniladi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko’nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo’llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik - noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olinishi.[8]

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o’rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo’ladi:

[8] Safarova R.G’. Pedagogika Ensiklopediya (I jild). – T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – 321 b.

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo’la olishda

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o’z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o’zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o’z amaliy faoliyatida samarali qo’llaydi.

2. Pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari

Mahorat (arab. “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik”) –

1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at, mohirlik;

2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o’ta mohirlik bilan bajarish;

3) muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko’nikma va malakalar majmui.

Pedagogik mahorat – o’qituvchining shaxsiy-kasbiy faoliyati natijasi umumlashmasi bo’lib, muayyan bilim, ko’nikma, malakalar yig’indisidan iborat.

Pedagogik mahorat –

1) kasbiy ko’nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi;

2) shaxsning kasbiy sifatlari, layoqat qobiliyatlari majmui;

3) san’at darajasidagi mahorat;

4) pedagogik mohirlik, san’at va bilimdonlikni ifodalovchi atama.[9]

[9] Pedagogik ensiklopediya 2017 y. 3 jild

3. Pedagogik qobiliyat va pedagogik texnika

Qobiliyat o’qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi.

Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta’minlaydi.

Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi.


Pedagogik qobiliyatlar, deb ataladigan qobiliyatlar ta’lim beruvchining aqliy, emotsional-irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligi, bilimdonligi va ularning bir-biriga bog’liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi. Psixologiyada qobiliyatlarga shunday ta’rif beriladi:

Qobiliyatlar - shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko’nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo’ladigan individiual- psixologik xususiyatdir.

Pedagogik faoliyat ta’lim beruvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatiga, mustahkam xarakterga, yuksak ma’naviyatga ega bo’lishini taqozo qiladi. I.A.Sherbakov ta’lim beruvchi shaxsi 6 ta kasbiy-tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta’kidlaydi:

1. Yuksak saviyadagi bilim va madaniyat
2. Yo’nalishning aniq ifodalanganligi
3. Yuksak axloqiy hislarning mavjudligi
4. Yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik
5. Qat’iy va silliq xarakter
6. Pedagogik qobiliyatlar

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, ta’lim beruvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikasiya qilish mumkin (1-rasm):



1-rasm. Pedagogik qobiliyat turlari

1. Didaktik qobiliyat - bu oson yo’l bilan murakkab bilimlarni tarbiyalanuvchilarga tushuntira olishdir. Bunda ta’lim beruvchining o’quv materialini tarbiyalanuvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi va namoyish qilishi, tarbiyalanuvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg’ota olishi ko’zda tutiladi. Ta’lim beruvchi zarurat tug’ilgan hollarda o’quv materialini o’zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz narsani tushunarli qila oladi.

2. Akademik qobiliyat - barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo’lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo’lgan ta’lim beruvchi o’z mutaxassisligi bo’yicha bilimlar hajmidagina emas, balki ancha keng va chukurroq biladi, o’z sport turi sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko’p narsalarni o’rganib boradi. Tarbiyalanuvchilarda ma’lum fan bo’yicha bilim va ko’nikmalar shakllantirish

jarayonida ma’lumotlarni fizika, anatomiya, fiziologiya, geometriya kabi boshqa fanlar bilan bog’lay oladi.

3. Perseptiv qobiliyat - qisqa daqiqalarda tarbiyalanuvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu tarbiyalanuvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, tarbiyalanuvchi shaxsini va uning vaqtinchalik psixologik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog’liq bo’lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday ta’lim beruvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo’lmagan tashqi belgilar asosida tarbiyalanuvchi ruhiyatdagi ko’z ilg’amas o’zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutqiy qobiliyat - ixcham, ma’noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo’lgan nutq. Shuningdek, ta’lim beruvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg’uga rioya qilishi. Qobiliyatli ta’lim beruvchining nutqi mashg’ulotda hamisha tarbiyalanuvchilarga qaratilgan bo’ladi. Ta’lim beruvchi yangi materialni tushuntirayotgan, tarbiyalanuvchining javobini tahlil qilayotgan, ma’qullayotgan yoki qoralayotgan bo’lsa ham uning nutqi hamisha o’zining ichki kuchi, ishonchi, o’zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi tarbiyalanuvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo’ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati – o’quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste’dodi. Tashkilotchilik tarbiyalanuvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan tarbiyalanuvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo’lsa, ikkinchidan, o’z faoliyatini to’g’ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. Obro’ga ega bo’lishlik qobiliyati - o’zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatli, mustahkam irodasi bilan obro’ orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi - avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Hurmatga ega bo’lish ta’lim beruvchi shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga ya’ni dadilliligi, chidamliligi, qat’iyligi, talabchanligi,

shuningdek, tarbiyalanuvchilarga ta’lim hamda tarbiya berish ma’suliyatini his etishga, bu ishonchni tarbiyalanuvchilarga ham yetkaza olishiga bog’liq bo’ladi.

7. Kommunikativ qobiliyat - muomala va muloqot o’rnata olish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati, tarbiyalanuvchilarga to’g’ri yondoshish yo’lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o’zaro munosabatlar o’rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. Diqqatni taqsimlash qobiliyati - bir necha obyektlarga bir davrning o’zida o’z munosabatini bildirish. Ta’lim beruvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari- hajmi, uning kuchi, ko’chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etganligi muhimdir. Qobiliyatli, tajribali ta’lim beruvchi o’z fikrini bayon qilishda diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha tarbiyalanuvchilarni o’z diqqat-e’tiborida tutadi, toliqish, e’tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e’tibordan qochirmaydi, nihoyat o’z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish-turishni) ham kuzatib boradi.

9. Kelajakni ko’ra bilish qobiliyati - insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o’z harakatlarning oqibatlarini oldindan ko’rishda, tarbiyalanuvchining kelgusida qanday odam bo’lishi haqidagi tasavvur bilan bog’liq bo’lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarning taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog’liq bo’ladi.

10. Konstruktiv qobiliyat – o’quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat tarbiyalanuvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o’quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, tarbiyalanuvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

Shuningdek zamonaviy ta’lim beruvchi o’zida aqli donishlik qobiliyati, iymon-e’tiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga yo’naltirish qobiliyati va tashabbusga, ijodga ilhomlantirish kabi qobiliyatlari bo’lishi zarurligi ko’zda tutilmoqda.

Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o’rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg’usi va iroda sifatlarning namoyon bo’lishidan iborat ekanligini ko’rsatadi.

Pedagogik qobiliyatlar xarakter xislatlari bilan bog’langan. Uyushqoqlik, qat’iylik, haqqoniylik pedagogik faoliyat darajasini orttirishga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko’ngilchanlik, adolatsizlik pedagog faoliyati natijalarini pasaytiradi.


Har bir pedagog o’ziga xos individiual-psixologik xislatlarga ega bo’ladilar. Ulardan ba’zilari harakatchanroq, boshqalari sustkashroq, ba’zilari talabchan, boshqalari yumshoqroq bo’ladilar. Bu xususiyatlarning hammasi juda yaxshi xususiyatlar bo’lib, ulardan foydalanishning ahamiyati katta. Bundan “pedagogga his-tuyg’ular, emotsiyalar yot narsa bo’lishi kerak”, degan ma’no kelib chiqmaydi, aksincha u quvonishni ham, g’azablanishi ham, qayg’uga tushishi ham, xafa bo’lishi ham mumkin va lozim. Bu yerda gap pedagogning qandaydir bir andozadagi shaxsga tenglashtirish zarurligi to’g’risida emas, balki uning o’z individual sifatlaridan ustalik bilan foydalanishi, o’zida shaxsning zarur xislatlarni tarkib toptirishi, o’z kamchiliklariga barham berishi to’g’risida boradi.[10]

Pedagogik texnika - pedagoglarga o’quv faoliyatida va undan tashqari faoliyatda ham zarur bo’lgan umumiy pedagogik malakalar majmui hisoblanadi.

Pedagogik texnika quyidagi tarkibiy qismlardan iborat (2-rasm):

- nutq malakalari;
- pedagogning mimikasi va pantomimikasi;
- o’z psixologik-ruhiy holatini boshqara olishi;
- aktyorlik va rejisserlik mahorati.

[10] Xolnazarova M.X., Muxliboyev M.Q. Yosh va pedagogik psixologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 208 b.



2-rasm. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari

Avvalo pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogning nutq malakalarini, ya’ni savodli gapirish, o’z nutqini chiroyli va tushunarli, ta’sirchan qilib bayon etish, o’z fikr va his-tuyg’ularini so’zda aniq ifodalash malakalarini aytib o’tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi pedagogning mimik va pantomimik ifodaliyligidir. Aniq imo-ishora, ma’noli qarash, rag’batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta’sir ko’rsatishda ko’p so’zni tushuntirish yoki e’tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muammoli vositalari bo’ladi.

Pedagogik o’zaro ta’sir ko’rsatishda pedagogning o’z psixologik-ruhiy holatini boshqarish, o’zida eng qulay hissiy-ijodiy jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o’zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol o’ynaydi. Bu mahorat pedagogikaning kasbiy jihatdan o’z-o’zini nazorat qilishlarini ta’minlaydi, ko’p yillar davomida sog’lom asab tizimini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo’riqishdan o’zini tiyish yordam beradi.

Pedagogik texnika shunday yig’indiki, u pedagogning eng yaxshi ijodiy xulq atvori, boshqacha aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchiga samarali ta’sir ko’rsatishga yordam beradi.

Pedagogik texnika malakalarning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Pedagogik texnikaning aniq ifodalangan individual shaxsiy tarzda bo'lishi, ya'ni pedagogning individual psixik-fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika pedagogning yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

- Nutqning ifodali, sof bo'lishi ustida ishlash fikrlarining ravon bo'lishiga ta'sir qiladi. Nutq imo-ishora, mimika, harakat bilan birga sodir bo'ladi, uzluksiz o'zini tuta bilish ta'sirchan vositalarini tanlashga, muvaffaqiyatli ravishda tuzatish kiritib borish imkonini beradi.

- Pedagogik ta'sir ko'rsatishda yuqoridagi malakalar orqali pedagogning ma'naviy va estetik nuqtai-nazarlari tarbiyalanuvchilarga yanada to'laroq ochib beriladi.

- Pedagogik texnika malakalarining shakllanish darajasi ma'lum darajada pedagogning umumiy ma'daniyat darajasini, ya'ni shaxsning pedagog imkoniyatlarni aks etadi.

Pedagogik jarayon shaxs va jamoatga ta'sir ko'rsatish bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonining texnologiyasini ochib beradi. Unga pedagogning didaktik, tashkilotchilik, konstruktivlik, kommunikativ ko'nikmalar, quyidagi talablarning texnologik usullari, pedagogik muloqotni boshqarish, jamoaning ijodiy ishlarni tashkil etish va boshqarish kiradi.

Pedagogning tashqi ko'rinishi ham estetik jihatdan mukammal bo'lishi kerak. Pedagoglarning tashqi qiyofasi ham uning obro'yining tarkib topishga ta'sir etadi. Pedagogning saramjon-sarishtaligi, ozodaligi, yaxshi odatlari, chiroyli qaddi-qomati va yurish-turishlari ta'lim oluvchilarda juda yaxshi taassurot qoldiradi.

2.2. Talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyasidan foydalanish

Talabalarning dunyoqarashini shakllantirish jarayonida talaba-tinglovchilarni shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyasi - ta’lim oluvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o’ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida ta’lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o’rin tutadi. Bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma’lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o’zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyasidan foydalanish zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko’ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo’naltirilishi talab qilinmoqda. O’zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo’naltirilgan ta’lim deb nomlanadi.

Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o’ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’lim hisoblanadi.

Bu ta’lim o’qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko’ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to’laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro’yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta’minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.

Shaxsga yo’naltirilgan ta’limning o’ziga xos jihati ta’lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat.

Pedagog ta’lim jarayonida shaxsga yo’naltirilgan ta’lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat’iy rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilardan iborat:

- har bir talabani alohida, o’ziga xos shaxs sifatida ko’ra olishi;
- talabani hurmat qilishi;
- talabaning ruhiy holatini to’g’ri baholay olishi;
- talabaning xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir talabaga tolerant munosabatda bo’lishi;
- talabaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir talaba uchun qulay ta’lim muhitini yaratishi;
- talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlarga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- talabalarni o’z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo’l qo’yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o’rgatish;
- ta’lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o’tkazmaslik;
- alohida talabaning kamchiliklarini bo’rttirib ko’rsatmaslik;
- bordi-yu, talaba tomonidan bilimlarni o’zlashtira olmaslik, ta’lim jarayonida o’zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat’iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
- aniqlangan sabablar asosida talabaning sha’ni, g’ururiga ziyon yetkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o’zlashtira olmaslik, o’zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
- ta’lim jarayonida har bir talaba uchun “muvaffaqiyat muhiti”ni yarata olish;
- har bir talabaga ta’lim olisha muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;
- talabaning qobiliyatini o’stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish;

- talabaning shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi;

- pedagog sifatida har bir talabaning hurmati va ishonchini qozona olishi.


O’qitishning shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy prinsiplar xos bo’ladi:

• insonparvarlik, ya’ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko’rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo’ravonlikdan to’la voz kechish;

• hamkorlik, ya’ni pedagog va ta’lim oluvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;

• erkin tarbiyalash, ya’ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta’sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish.

Ayni vaqtda talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda shaxsga yo’naltirilgan ta’limning quyidagi turlari farqlanmoqda (3-rasm):



3-rasm Shaxsga yo‘naltirilgan ta'limning asosiy turlari

Shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda ta’lim oluvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

Talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyasidan foydalanish quyidagilardan iborat bo’ladi:

❖ pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, subyekt hisoblanadi;

❖ har bir ta’lim oluvchi qobiliyat egasi, ko’pchiligi esa iste’dod egasi hisoblanadi;

❖ yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi.

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o’z ichiga oladi:

• ta’lim oluvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish;

• ta’lim oluvchining erkin tanlab olish huquqi;

• xatoga yo’l qo’yish huquqi;

• o’z nuqtai nazariga ega bo’lish huquqi;

• pedagog va ta’lim oluvchi munosabatining asosi: ta’qiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g’ayri insoniy hisoblanadigan majburlash pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu yondashuvni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida majburlashdan voz kechish mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda so’zsiz itoatkorlik xususiyatlarini shakllantiradi.

Talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalarning **e**rkin o’qitish shakllari quyidagilar bilan belgilanadi:

• ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;

• o’quv materialiga qiziqish uyg’otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag’batlantirish;

• ta’lim oluvchilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;

• jamoa orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta’minlash.

Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta’lim tizimida o’quv fanidan ta’lim oluvchiga emas, ta’lim oluvchidan o’quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, ta’lim oluvchilarning mavjud imkoniyatlarini inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo’ladi.

Talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:

- o’rtacha ta’lim oluvchiga yo’naltirishdan voz kechish;
- shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;
- shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.

Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo’ladi:

• har bir ta’lim oluvchi qiyofasida noyob shaxsni ko’rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha ta’lim oluvchilar iste’dodli degan ishonch bo’lishi kerak;

• shaxsga yutuqni ma’qullovchi, qo’llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya’ni o’qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak;

• bevosita majburlashga yo’l qo’ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg’u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik;

• pedagogik jarayonda, ta’lim oluvchilarga o’z qobiliyatlarini ro’yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko’maklashish.

Ta’lim tizimi uchun o’qitishning shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ❖ muammoli ta’lim;
- ❖ hamkorlik;
- ❖ o’yinli;
- ❖ tabaqalashtirilgan;
- ❖ yakka tartibda o’qitish;
- ❖ modulli o’qitish;
- ❖ komputerlashtirilgan;

❖ masofali ta’lim va boshqalar.

Ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an’anaviy ta’lim ham suhbatga asoslangan va bu suhbat quyidagi o’zaro munosabatlar shakllarida tashkil etiladi:

- An’anaviy ta’limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai pedagogning tajribasi bo’lib, bu jarayonda u yetakchilik qiladi, ya’ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og’zaki tarzida ta’lim oluvchilargaetkazib berishga intiladi.

- Faollik ko’rsatish pedagoggagina xos bo’lib, ta’lim oluvchilar bu vaziyatda sust tinglovchi bo’lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi pedagogni tinglash, zarur o’rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so’zlashdan iboratdir. Ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an’anaviy ta’lim ham suhbat dialogga asoslangan va bu suhbat quyidagi o’zaro munosabatlar shakllarida tashkil etiladi (4-rasm):



4-rasm. Talabalar dunyoqarashini shakllantirishda suhbat asosidagi o’zaro munosabatlar

Amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o’rganishlariga ko’ra, shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o’zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi (5-rasm). Ya’ni shaxs:

- manbani o’zi o’qiganida 10%;


- ma’lumotni eshitganida 20%;

- sodir bo’lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko’rganida 30%;

- sodir bo’lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko’rib, ular to’g’risidagi ma’lumotlarni eshitganida 50%;

- ma’lumot (axborot)larni o’zi uzatganida (so’zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80%;


- o’zlashtirilgan bilim (ma’lumot, axborot) larni o’z faoliyatiga tatbiq etganida 90% hajmdagi ma’lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega ekan.




5-rasm. Tinglovchining bilimlarni xotirada saqlab qolish turlari va darajalari

Talabalar dunyoqarashini shakllantirish jarayonida ta’lim samaradorligini ta’minlovchi mashg’ulotlarni amalda qo’llash bo’yicha ayrim tajribalarni o’rganish asosida bu mashg’ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi ayrim omillarni ko’rsatishimiz mumkin. Ular shartli ravishda tshkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o’qituvchiga, talabalarga, ta’lim vositalariga bog’liq omillar deb atash mumkin. Ular o’z mohiyatiga ko’ra ijobiy yoki salbiy ta’sir ko’rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Talabalar dunyoqarashini shakllantirish jarayonida ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy va ikkilamchi omillari quyidagilar hisoblanadi (6- va 7-rasmlar):



6-rasm. Talabalar dunyoqarashini shakllantirish jarayonida ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar



7-rasm. Talabalar dunyoqarashini shakllantirish jarayonida ta’lim samaradorligini ta’minlovchi ikkilamchi omillar

2.3. Talabalar o’quv faolligini rivojlantirishda ta’lim innovatsiyalaridan va metodlaridan foydalanish

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida talabalar o’quv faolligini rivojlantirishda o’qitishning zamonaviy metodlari keng qo’llanilmoqda. O’qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o’qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo’lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo’llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo’lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo’lgan o’qish-o’rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag’batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o’qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
-ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo’llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o’rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o’zaro muloqotda, o’zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o’quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o’rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O’qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o’quv muassasasining o’quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o’qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Interfaol usullar ko’p turli bo’lib ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o’qituvchidan mashg’ulot oldidan katta tayyorgarlik ko’rishni talab qiladi.

Interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi – talabalarning muloqot olib borish bo’yicha ko’nikma va malakalarini rivojlantiradi, talabalar orasida emotsional aloqalar o’rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o’z o’rtoqlarining fikrini tinglashga o’rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishi ta’minlaydi. Shu mashg’ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an’anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko’rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin (1-jadval).

1-jadval

An’anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar

№	Asosiy tushunchalar	An’anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo’llanish darajasi	Barcha mavzular bo’yicha ular uchun qulay bo’lgan dars turlari shaklida qo’llaniladi	Ayrim mavzular bo’yicha interfaol darsning qulay bo’lgan turlari shaklida qo’llaniladi. Boshqa mavzular uchun an’anaviy dars qo’llaniladi
2	Dars maqsadi	Dars mavzusi bo’yicha bilim, ko’nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash	Dars mavzusi bo’yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o’rgatish
3	O’qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish	Talabalarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosa berish

4	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash
5	O’quvchilar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo’yicha vazifalarni bajarib kelish	Yangi dars mavzusi bo’yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma’lumotlarni bilish
6	O’quvchilarning vazifalari va ish usullari	O’qituvchini tinglash va o’zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish	O’qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo’yicha mustaqil fikrlash, o’z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko’p qismi o’qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o’zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi	Dars vaqtining ko’p qismi o’quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr lmashishi, mushohada qilishi, o’z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi
8	Darsning modul va algoritmlari	Darsning modul va algoritmlardan har bir o’qituvchi o’zi qo’llayotgan metodga muvofiq foydalanadi	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o’tkaziladi
9	O’quvchilar dan talab qilinadigan faollik darajasi	O’qituvchi har tomonlama faol, talabalar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo’yicha faol.	O’qituvchi ham, talabalar ham har tomonlama faol.
10	Bilimlarni o’zlashtirishning asosiy usullari	Muloqot, muhokama, muzokara, bahs, mutolaa, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada	Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil
11	Mashg’ulot shakllari	Ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg’ulot, munozara, davra suhbati, bahs, konsultatsiya	Ma’ruza, guruh yoki juft bo’lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbati, amaliy ishlar

12	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishlari	Mavzu bo'yicha talabalarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish

Jadvalda keltirilgan farqlar shu ikki mashg'ulot turining bir-biriga nisbatan afzal va kamchilik tomonlarini yaqqol ko'rsatib turibdi.[11]

So'nggi 20 yil mobaynida hayotga, shuningdek, ta'limga shiddat bilan yangi metodlar, qog'ozsiz axborot manbai: videokompyuter tizimi kirib keldi.

Hozirgi paytda o'rganiladigan bilim manbalariga ko'ra, metodlar 5 guruhga bo'linadi hamda qator usullarni o'z ichiga oladi (8-rasm):

1. Amalda sinash, tajriba metodi:

- tajriba o'tkazish, amaliyot o'tkazish;
- mashq qilish jarayonida qatnashish, mehnat, ishlab chiqarish.

2. Ko'rgazmali namoyish qilish metodi:

- o'quvchi, talabalar tomonidan kuzatish, amaliyot o'tkazish.

3. Og'zaki so'z orqali ifodalanadigan metod:

- tushuntirish, ongiga etkazish;
- hikoya qilish;
- o'zaro fikr almashuv;
- suhbat o'tkazish;
- yo'l – yo'riq, ko'rsatma berish;
- ma'ruza;
- munozara, bahs

4. Kitob bilan ishlash:


- o'qish, o'rganish, tezda ko'rib chiqish;
- sitata keltirish va uning ustida ishlash, bayon yozish;

[11] Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.

- referat yozish, konspekt tuzish.

5. Video metod:

- kompyuterda mashq, test yechish;
- nazorat o’tkazish;
- internetda ishlash;
- o’quv filmlarini tayyorlash va namoyish etish;
- axborot texnologiyalariga asoslanib, ishlab chiqilgan dasturlar asosida kompyuterda iqtisodiy ko’rsatkichlarni hisoblash, ularga omillar ta’sirini o’rganish;
- multimedia asosida taqdimot tayyorlash, namoyish etish va boshqa shu kabilarniqamrab oladi.



8-rasm. Psixologik nuqtai nazardan, bilimlarni o’zlashtirish metodlari

***Metodlarning afzalliklari**:*

- aniq, ma’lum tushunchalarni bilish, ma’lum ko’nikmalarga ega bo’lish;
- o’qituvchi tomonidan o’qitish jarayonini va o’qitish muhitini yuqori darajada nazoratqilish;
- vaqtdan unumli foydalanish;


- aniq ilmiy bilimlarga tayanish.

Metodlarning kamchiliklari:

- o’qitishning bunday tizimini eng jiddiy kamchiligi talabalarning mashg’ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasi pastligi;
- o’qituvchining to’la nazorati barcha talabalar uchun motivatsiya ishtiyoqini vujudga keltirmaydi;
- o’quvchi, talabalar o’qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi;
- eslab qolish darajasi hammada teng bo’lmagani sababli guruhda o’zlashtirish past bo’lishi mumkin;
- Mustaqil o’rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

Talabalarning ta’lim jarayonida, biologiyaning barcha sohalarida zamonaviy ta’lim texnologiya usullarini qo’llash keng yo’lga qo’yilgan.

“SWOT-tahlil” metodi. Zamonaviy ta’lim texnologiya usullaridan biri bo’lgan SWOT-tahlil (analiz, analysis) usulini qo’llash barcha talabalarga o’z mutaxassisligi bo’yicha bilimlarni, metodlarni, o’simlik va hayvon turlarini, kasalliklarni o’rganishda eng samarali hisoblanadi. (9-rasm).



9-rasm. “SWOT-tahlil” metodi

Unga ko’ra o’rganilayotgan obyektning kuchli tomonlari-Strengths (S), kuchsiz, zaif tomonlari-Weaknesses (W), imkoniyatlari-Opportunities (O) va xavf, to’siqlar-Threats (T) tomonlari chuqur o’rganilib, muzokara orqali tinglovchilar orasida tahlil qilinadi.

SWOT tahlil usulining kuchli (S) va kuchsiz (W) tomonlari tahlil etilayotgan obyektning ichki sharoit omillari hisoblanib, obyektga bevosita bog’liq bo’lgan omillardir. Usulning imkoniyatlar (O) va xavf, to’siqlar (T) tomoni tashqi sharoit omillari hisoblanib, obyektga bog’liq bo’lmagan va obyektga tashqaridan ta’sir etuvchi omillar sanaladi.

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo’yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to’plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og’zaki shakllari mavjud. Og’zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o’z fikrini og’zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o’z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o’z javoblarini qog’oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko’rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga magnitlar yordamida yoki “pinbord” doskasiga ignalar yordamida mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo’yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to’g’ri va ijobiy qo’llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o’rgatadi.


“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo’ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o’z fikrini faqat og’zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko’nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g’oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo’yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi (10-rasm):

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo’yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog’lash maqsad qilib qo’yilganda-yangi mavzuga o’tish qismida amalga oshiriladi.

3. O’tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo’yilganda-mavzudan so’ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi. Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan. [12]



10-rasm “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodini qo’llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g’oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2. Bildirilgan har qanday fikr-g’oyalar, ular hatto to’g’ri bo’lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

[12] Sayidahmedov N.S., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 336 b.

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo’yicha o’z javoblarini, fikr, g’oya va mulohazalarini bildirishlari so’raladi;

2. Ta’lim oluvchilar savol bo’yicha o’z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g’oyalari to’planadi;

4. Fikr-g’oyalar ma’lum belgilar bo’yicha guruhlanadi;

5. Yuqorida qo’yilgan savolga aniq va to’g’ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

• natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g’oyalarning shakllanishiga olib keladi;

• ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;

• fikr-g’oyalar vizuallashtirilib boriladi;

• ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini tekshirib ko’rish imkoniyati mavjud;

• ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg’otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

• ta’lim beruvchi tomonidan savolni to’g’ri qo’ya olmaslik;

• ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi – ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o’quv materialini o’rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo’llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo’lishga, bir-biridan o’rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo’ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo’llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo’ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o’zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo’nalishi aniqlanadi. Mavzu bo’yicha bir-biriga bog’liq bo’lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo’linishlari mumkin.

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.


4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko’rsatmalar beriladi va yo’naltirib turiladi.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi.

Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan (11-rasm).



11-rasm. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

• o’qitish mazmunini yaxshi o’zlashtirishga olib keladi;

• muloqotga kirishish ko’nikmasining takomillashishiga olib keladi;

• vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

• barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;

• o’z-o’zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo’ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

• ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo’lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;

• barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo’ladi;

• guruhlararo o’zaro salbiy raqobatlar paydo bo’lib qolishi mumkin;

• guruh ichida o’zaro nizo paydo bo’lishi mumkin.

“Bahs-munozara” metodi - biror mavzu bo’yicha ta’lim oluvchilar bilan o’zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o’tkaziladigan o’qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo’llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o’zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo’ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o’tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o’ng qo’l” qoidasiga rioya qilish;
- fikr-g’oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g’oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o’zaro hurmat.

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo’yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g’oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o’z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g’oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo’yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o’tkazish tuzilmasi berilgan (12-rasm).



12-rasm. “Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:

• ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;

• ta’lim oluvchilar o’z fikrining to’g’riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;

• ta’lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.


“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

• ta’lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;

• ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo’lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Keys-study” metodi - “Keys-stadi” - inglizcha so’z bo’lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “study” – o’rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o’rganish, tahlil qilish asosida o’qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o’rganishda foydalanish tartibida qo’llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o’z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Pedagogikada “klaster” – “tarmoqlar metodi texnologiyasi” deb ham ataladi va bu metod mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o’rgatishga qaratilgan, biron-bir mavzuni chuqur o’rganishdan oldin o’quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladigan usul ma’nosida qo’llaniladi (13-rasm va 2-jadval).



13-rasm. “Klaster” metodining tuzilishi

2-jadval

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	- yakka tartibdagi audio-vizual ish; - keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); - axborotni umumlashtirish; - axborot tahlili; - muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysnianiqlashtirish va o’quv topshirig’ini belgilash	- individual va guruhda ishlash; - muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; - asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig’ining yechimini izlash, hal etish yo’llarini ishlab chiqish	- individual va guruhda ishlash; - muqobil yechim yo’llarini ishlab chiqish; - har bir yechimning imkoniyatlari va to’siqlarni tahlil qilish; - muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	- yakka va guruhda ishlash; - muqobil variantlarni amalda qo’llash imkoniyatlarini asoslash; - ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; - yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.

Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining muallifi, klasterning maqsadini quyidagilarda deb biladi:

– ta’lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlari hamda vositalarini izlab topish va ta’lim amaliyotiga tatbiq etish;

– ta’lim va tarbiya uzviyligi, aloqadorligi, uzluksizligini ta’minlovchi mexanizmlarini izlab topish va takomillashtirish;

- barcha ta’lim fanlari bo’yicha pedagogik ta’limni rivojlantirishning dolzarb muammolarining intellektual resurslarini integratsiyalash;

– pedagogik ta’limga o’quvchilarning qiziqishini oshirish, ularda pedagog bo’lishga istak va xohishni uyg’otish, institutga yuqori ko’rsatkichlar bilan tahsil olayotgan o’quvchilarni tanlab olish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– pedagogik ta’lim bo’g’inlari orasidagi aloqadorlik, bog’liqlik, hamkorlik, uzviylik va uzluksizlikni ilmiy hamda amaliy jihatdan asoslash;

– talabalarni bugungi jadal rivojlanish jarayonlarida bevosita ishtirokini ta’minlash hamda yosh mutaxassislarning kasbiy ko’nikmalarni egallash davrini qisqartirish.

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo’yicha ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo’yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo’lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so’nishiga, o’zlariga bo’lgan ishonchlarining yo’qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo’llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o’rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo’yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o’rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so’ng bir xil fikrlar jamlanadi.


5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to’g’risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so’ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo’llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo’yicha taqdimot qiladilar va o’z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so’ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo’llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan (14-rasm).



14-rasm. “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

• ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;

• ta’lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o’rganadilar;

• ta’lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

• ta’lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o’rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

• ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;

• qo’yilgan muammo ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;

• ko’p vaqt talab etiladi.

“Rolli o’yin” metodi - ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko’rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o’yinlarning ishbop o’yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o’yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan senariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanadi. Rolli o’yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o’yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo’lishi lozim. Chunki rollarni o’ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o’yinlar o’quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.[13]

“Rolli o’yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo’yicha o’yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o’yin senariysini ishlab chiqadi.


2. O’yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.

3. O’yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.

4. Ta’lim oluvchilar o’z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

[13] Olimov Sh.Sh., Hasanova Z.D. Pedagogik texnologiyalarni o’quv-tarbiya jarayoniga qo’llash. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 180 b.

5. O’yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo’lgan ta’lim oluvchilar o’z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o’yinga xulosa qilinadi. Quyida “Rolli o’yin” metodining tuzilmasi keltirilgan (15-rasm).



15-rasm. “Rolli o’yin” metodining tuzilmasi

Ushbu metodni qo’llash uchun senariy ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham senariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Senariy maxsus fan bo’yicha o’tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar ushbu rolli o’yin ko’rinishidan so’ng o’z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o’yin” metodining afzallik tomonlari:

• o’quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi;

• ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;

• nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llay olishni o’rgatadi;

• ta’lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o’yin” metodining kamchilik tomonlari:

• ko’p vaqt talab etiladi;

• ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;

• ta’lim oluvchilarning o’yinga tayyorgarligi turlicha bo’lishi mumkin;

• barcha ta’lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

B/B/B chizmasi metodi - Bilaman / Bilishni xohlayman / Bilib oldim – usuli bo’lib, mavzu, matn, bo’lim bo’yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Bu metod talabalarni kitob, ilmiy maqolalarni o’qishga, bilmaganlarini o’rganishga harakat qilishlariga yordam beradi. Barcha talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta’minlaydi.

Tinglovchilar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

2. “Mavzu bo’yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo’naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo’limlarini to’ldiradilar.

3. Ma’ruzani tinglaydilar, mustaqil o’qiydilar.

4. Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3 bo’limni to’ldiradilar

Talabalarning nimalarni bilishi, yangi mavzu bo’yicha nimani bilishi zarurligi va dars davomida nimalarni talabalar bilganini ko’rsatishi uchun jadval chiziladi (3-jadval).

3-jadval

B/B/B jadvali

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Bu metodni qo’llashda o’qituvchi avvaldan qaysi mavzu yoki savolni shu metod yordamida o’rganishni aniqlaydi. O’rganilgan mavzu bo’yicha savollar va ularning javoblarini, o’qiladigan maqola, darslikdagi paragraf yoki ma’ruza matni, yangi mavzu bo’yicha bilish lozim bo’lgan savollar va ularga javoblarni tayyorlaydi.

Muhokama jarayonida talabalarning tanqidiy fikr yuritishlari, o’z fikrlarini asoslashga urinishlari, o’rtoqlari bilan munozara qilishlari keyingi bosqich fikrlash, tafakkur bosqichiga o’tilganini bildiradi.

Talabalar yangi ma’lumotlarni yaxshi qabul qila oladilar. Chunki ular avvalgi bilganlarini yangi olgan bilimlari bilan bemalol birlashtiradilar. Ularning o’z qobiliyatlariga ishonchlari ortadi. Bu metod o’qish davomida talabalarga o’z shaxsiy tushunchalarini faol ko’rib chiqishga yordam beruvchi kuchli qurol hisoblanadi.

“Blits-o’yin” metodi – tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo’llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallar alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o’rganish talab etiladi. Shundan so’ng, ishtirokchilarga to’g’ri javoblarni tarqatmadagi “yakka baho” ustuniga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda pedagog ishtirokchilarni kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o’z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o’tkazib, o’z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to’xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo’limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi (4-jadval).

3. Barcha kichik guruhlar o’z ishlarini tugatgach, to’g’ri harakatlar ketma-ketligi pedagog tomonidan o’qib eshittiriladi va tinglovchilardan bu javoblarni “to’g’ri javob” bo’limiga yozish so’raladi.

4. “To’g’ri javob” bo’limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo’limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farqini yozish so’raladi. Shundan so’ng, “yakka xato” bo’limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo’shib chiqilib, umumiy yig’indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda “to’g’ri javob” va “guruh bahosi” o’rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo’limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo’shiladi va umumiy yig’indi keltirib chiqariladi.

6. Pedagog yakka va guruh xatolarini to’plangan umumiy yig’indi bo’yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo’yicha o’zlashtirish darajalari aniqlanadi.

4-jadval

“Blits-o’yin” metodida ishtirokchilarning harakatini baholab borish tartibi

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To’g’ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Harakatlar mazmuni

III Bob. TALABALARNING TABIIY-ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Zamonaviy pedagogning talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirishga bo'lgan talablar va uni shakllantirish masalalari

Tabiiy-ilmiy dunyoqarash – bu insonning tabiat, tirik va notirik olam, biologik jarayonlar, fizik-kimyoviy hodisalar, ekologik muammolar hamda koinot haqidagi ilmiy bilimlari, qarashlari, e'tiqodlari va tafakkur usullarining yaxlit tizimidir. U shunchaki nazariy bilimlar yig‘indisi emas, balki insonning atrof-muhitda sodir bo‘layotgan jarayonlarni ilmiy asosda anglash, tahlil qilish, sabab va oqibat munosabatlarini aniqlash hamda hayotiy vaziyatlarga to‘g‘ri baho berish qobiliyatini ham ifodalaydi.

Zamonaviy pedagogning asosiy vazifasi talabalarga tayyor bilimlarni yetkazish bilangina cheklanmaydi. U talabalarda mustaqil fikrlash, ilmiy izlanish olib borish, muammoli vaziyatlarga yechim topish, tabiiy hodisalarni kuzatish va tajriba asosida xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayoni ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va baholash mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligini talab etadi.

Pedagogikaning bosh masalasi tarbiyadir. Tarbiyadagi keng ma'no ta'lim, rivojlanish, ma'lumot bilan bog'langan holda barkamol insonni voyaga yetkazishdir. Tarbiya - shaxsni muayyan yo'nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatdir. Pedagogika fanining obyekti asosan maktab ta'lim oluvchilaridir, predmeti esa ta'lim oluvchilarga berilayotgan ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotidir.

“Pedagogika” faniga tavsif berilganda “ta’lim”, “tarbiya” hamda “ma’lumot” degan so’zlarni ishlatdik. Bu so’zlar o’zaro bog’langan bo’lib, bir birini to’ldiradilar. Ularni pedagogikaning asosiy kategoriya tushunchalari deb qaraymiz.

Tarbiya bola tug’ilgandan boshlab, to umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Shu tufayli tarbiya so’zi ko’p vaqtlarda ta’lim, ma’lumot jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini ham anglatadi.

Zamonaviy pedagogga qo‘yiladigan asosiy talablar:

Zamonaviy pedagog – bu nafaqat o‘z fanini chuqur biladigan mutaxassis, balki talabalarning intellektual salohiyati, ilmiy tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirishga qodir bo‘lgan ijodkor, izlanuvchan hamda innovatsion yondashuvga ega shaxsdir. Tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish jarayonida pedagogning kasbiy, metodik, kommunikativ va axborot texnologiyalariga oid kompetensiyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, zamonaviy pedagog yuqori darajadagi ilmiy-nazariy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. U biologiya, kimyo, fizika, geografiya, ekologiya va boshqa tabiiy fanlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tushuntira olishi, fanlararo integratsiya asosida talabalarda yaxlit ilmiy tasavvurni shakllantirishi kerak. Chunki tabiatda sodir bo‘ladigan jarayonlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq va uzluksiz tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, pedagog zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta egallagan bo‘lishi lozim. Muammoli ta’lim, loyihaviy ta’lim, tadqiqotga asoslangan o‘qitish, interfaol metodlar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlari, virtual tajribalar, modellashtirish va kuzatish metodlari samarali natija beradi.

Uchinchidan, zamonaviy pedagog talabalarni mustaqil ilmiy faoliyatga yo‘naltira olishi kerak. Talabalar muayyan tabiiy hodisa yoki ekologik muammoni mustaqil o‘rganishi, ilmiy manbalarni tahlil qilishi, tajribalar

o‘tkazishi va olingan natijalarni asoslab berishi uchun zarur sharoit yaratish pedagogning muhim vazifalaridan biridir.


To‘rtinchidan, pedagogda ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan ilmiy qarashlar shakllangan bo‘lishi lozim. Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi, tuproq sho‘rlanishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va atrof-muhit ifloslanishi kabi muammolarni ilmiy jihatdan anglash talabalarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Beshinchidan, zamonaviy pedagog doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo‘lishi va ta’lim jarayoniga yangi ilmiy ma’lumotlarni olib kirishi zarur. Chunki tabiiy fanlar doimiy rivojlanib boradigan soha bo‘lib, ulardagi yangi kashfiyotlar va ilmiy yutuqlar ta’lim mazmunining ham muntazam yangilanib borishini taqozo etadi.

Shunday qilib, zamonaviy pedagogning kasbiy faoliyati bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish, ilmiy izlanishga yo‘naltirish va talabalarning dunyoqarashini kengaytirish kabi o‘zaro bog‘liq vazifalarni qamrab oladi.


Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish samaradorligi, eng avvalo, ta’lim jarayonining ilmiy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq. Metodik tizim – bu ta’lim maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari va natijalarini o‘zaro muvofiqlashtiruvchi yaxlit pedagogik mexanizmdir. Mazkur tizimni takomillashtirishda talabaning shaxsiy imkoniyatlari, bilim darajasi, mustaqil fikrlashi va ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, tarbiya tushunchasi o’sib kelayotgan avlodda hosil qilgan bilimlar asosida aqliy kamolot - dunyoqarashini insoniy e’tiqod, burch va ma’suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo’lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi (16-rasm).



16-rasm. Talabalar dunyoqarashining shakllanishida pedagogika fanining predmeti

Talabalar dunyoqarashini shakllantirishda ta’limning boshlang’ich (dastlabki) vazifasi ta’lim oluvchini o’qitishdan iborat (17-rasm). Shuning bilan birga oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga ma’lumot berish vazifasini bajaradi. Shunga ko’ra, ta’lim birinchidan o’qishni, ikkinchidan o’qitishni, ya’ni o’qishni va shu bilan birga uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini o’z ichiga oladi.




17-rasm. Talabalar dunyoqarashining shakllanishida pedagogning vazifalari

Ta’lim berish – ta’lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo’lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir.

Ta’lim berish ta’lim oluvchilarning o’qish – o’qitish jarayonining mazmun – mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

Zikr etilganlarga ko’ra talabalar dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim-tarbiya jarayoni quyidagi savollarga javob beradi (18-rasm):



18-rasm. Talabalar dunyoqarashining shakllanishi doirasida ta’lim-tarbiya jarayoni quyidagi savollarga javob beradi

Kimlar?: Ishtirokchilar

Ta’lim-tarbiya jarayoni ishrokchilari ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilardir. Ta’lim beruvchining bilimi, ko’nikma, malaka, shaxsiy fazilatlari ta’lim-tarbiya jarayonining barcha tarkibiy qismlariga ta’sir etuvchi asosiy omil hisoblanadi. Ta’lim beruvchi tegishli ma’lumotga ega, kasbiy tayyorgarligi mavjud va yuksak ahloqiy fazilatlarga ega bo’lishi lozim. Ta’lim beruvchining asosiy vazifasi ta’lim oluvchilarni o’rgatishdir.

O’rgatish - ta’lim maqsadini amalga oshirish bo’yicha pedagogning tartiblangan faoliyati. O’rgatish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni

bajarish ko’nikmalarining ta’lim oluvchilar tomonidan o’zlashtirilishini turli vosita va usullarni qo’llab tushuntirish, ko’rsatish va mashqlarni amalga oshirish jarayoni.

O’rgatish – ijtimoiy xulq-atvorni oddiy shaklga aylantirish maqsadida ta’lim oluvchilar bilan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkiliy va amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir. O’rgatish ta’lim oluvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi. Shu bilan birga, ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy tarkibi sifatida ta’lim oluvchi ham ishtirok etadi. Ta’lim oluvchilarning vazifasi esa o’rganishdir.

O’rganish - anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq – atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o’zgaradi. O’rganish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko’rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko’nikmalarini egallash.

Nima uchun?: Ta’lim maqsadlari

Maqsad – qo’yilgan muammo yechimiga intilishi yo’nalishi va bu boradagi harakatlar natijasi. Maqsadlar ta’limni boshqaruv faoliyatiga qarab, aynan bir oddiy ta’limiy masala yechimiga qaralishidan tortib, uzluksiz ta’lim tizimidagi turli faoliyatlargacha belgilanib berilaveradi.

Ta’lim maqsadlari - muayyan ta’lim jarayoni yakunida ta’lim oluvchi tomonidan o’zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni belgilaydi.

Boshqacha qilib aytadigan bo’lsak, ta’lim maqsadlari oldindan ko’zlangan yakuniy natijalar tavsifidir. Har qanday dars aniq maqsadga yo’naltirilgan o’quv jarayonidir. Ta’lim maqsadlari aniq bo’lgan taqdirdagina, ularning mazmunini belgilash va ularni didaktik nuqtai nazardan ishlab chiqishga kirishish mumkin.

Har bir darsning maqsadlari oldindan aniqlanishi lozim. Aniqlangan ta’lim maqsadlari, dars mazmuni bo’yicha qaysi nazariy materiallarni tanlash, uni o’tkazish bo’yicha qanday metodik va didaktik vositalardan foydalanish lozimligini belgilab beradi. Maqsadlar yozma ravishda dars rejasiga kiritiladi va

maqsad erishilgan erishilmaganligi baholash yordamida tekshiriladi va mustahkamlanadi.

Nimani?: Ta'lim mazmuni

Ta'lim mazmuni – insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va harakteri. Ta'lim mazmuni belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmga ega bo'ladi. U tegishli me'yoriy hujjatlar: ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi. Ta'lim mazmuni to'g'ri belgilanishi hamda unga zarur o'zgartirishlar kiritish, yangilanib borish imkoniyatlari nazarda tutilishi lozim. Belgilangan mazmun asosida o'quv fanlari, o'quv soatlari, mashg'ulot turlari va shu kabilar aniqlanadi.

Bu mazmunlar bir tomondan kerakli dastlabki bilimlarni (dars mazmunini) va boshqa tomondan topshiriqlarni bajarish uchun kerakli amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni inobatga olishi kerak.

Qanday?: Ta'lim metodlari

Agar maqsadlar va mazmunlar aniq bo'lsa, aynan shunday metodlar tanlab olinishi kerakki, ular shu maqsad va mazmunlarni o'lchanadigan natijalarga aylantira olishlari lozim. Metod (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "yo'l" degan ma'noni anglatadi) maqsadga erishish yo'lini bildiradi.

Ta'lim metodi – bu ta'lim jarayonida pedagog va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir. Ta'lim metodi pedagog bilan ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir.[14] Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materiallarini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi. Ta'lim metodlari o'quv materialini bayon qilishga va uni ta'lim oluvchilar yaxshi bilim olishga

[14] Safarova R.G'., Jo'raev R.H. Pedagogika Ensiklopediya (II jild). – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – 377 b.


qaratilgan faoliyatning yo’li, usulidir. Ta’lim jarayoni va natijalari pedagogni ta’lim oluvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi ish usullariga bog’liqdir. Shu sababli doimo pedagogikada ta’lim metodlariga pedagogning ish usullari va ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati usullari deb qaraladiki, bu usullarning har ikkalasi o’quv vazifalarini bajarishga qaratilgandir. Metod tanlashda albatta ayrim o’quv predmetlarini o’ziga xos xususiyatlariga amal qilinmog’i lozim. Shu bilan birga ta’lim jarayonida ko’pchilik o’quv predmetlarini o’qitishda qo’llanilishi mumkin bo’lgan umumiy ta’lim metodlari bilan birga ayrim o’quv predmetlarini o’qitishda qo’llanilgan o’ziga xos xususiy metodlar va metodik yondashuvlar ham bor. Shu bilan birga, ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilar faoliyatiga ko’ra tavsiflangan “faol”, “nofaol” va “interfaol metodlar” deb atalgan metodlar pedagog tomonidan tanlab olinadi va qo’llanadi.

Qay tarzda?: Ta’limni tashkil etish shakllari

Yuqorida aytilgan hamma narsalar vaqt omilini inobatga olgan holda tashkil qilinishi kerak. Chunki har bir dars uchun aniq vaqt me’yorlari bor va aynan shu vaqt doirasida o’quv maqsadlarga erishish lozim. Buning uchun nafaqat puxta reja, balki unumli tashkillashtirish ham kerak. Vaqt davri, vaqt davomi va o’quv joyi – tashkillashtirish jarayonida belgilanadi. O’rgatish va o’rganishni tashkil qilishning xilma xil shakllari mavjud.

Shakl - o’quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq.

Ta’limning tashkiliy shakli - belgilangan tartibda sodir bo’ladigan, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining maxsus tashkil qilingan faoliyatining tashqi ifodasidir. Talabalar dunyoqarashini shakllanishida ta’limning tashkiliy shakllarini quyidagicha tasniflash mumkin (19-rasm):



19-rasm. Talabalar dunyoqarashini shakllanishida ta'limning tashkiliy shakllari

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini ta'lim oluvchilar soniga ko'ra tashkillashtirish shakllari:

1. Jamoaviy ish (frontal) - barcha ta'lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo'yiladi.

2. Guruhlarda - turli guruhlarda hamkorlikda bir topshiriqni bajarish. Bunda kichik guruhlarda, juftlikda va guruhlararo ishlar tashkil etilishi mumkin.

Guruhlarni shakllantirishning quyidagi yo'llari mavjud:

• majburiy; • ixtiyoriy; • tasodifiy.

3. Yakka tartibda (individual) - o'quv topshirig'ini yakka o'zi bajarishi.

Nimalar yordamida?: Ta'lim vositalari (Sharoitlar)


Ta'lim vositalari - o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi, ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi har qanday axborot tashuvchilardir. Sharoitlar deganda, birinchi navbatda moddiy-texnikshart sharoitlar tushuniladi. Bir tomondan, moddiy-texnik sharoitlar, ya'ni binolar, sinfxonalar, ularning jihozlanganlik darajasi, chunki ular ma'lum sifat standartlariga javob berishi kerak. Boshqa tomondan esa, o'quv vositalari tushuniladi, chunki ular o'quv jarayondagi bilimlarni o'zlashtirilishiga yordam

beradi. O’quv maqsadlariga mo’ljallangan ko’plab o’quv vositalari mavjud. Lekin gap vositalarning ko’pligida emas, balki muayan o’quv maqsadiga erishish uchun ma’qul keladigan vositalarni tanlab olishdadir. Agar tayyor materiallar bor bo’lsa, ularning orasidan to’g’ri keladiganlari tanlab olinadi. Agar tayyor o’quv-didaktik materiallar yoki o’quv vositalar bo’lmasa, u holda ularni tayyorlash kerak bo’ladi.

Ta’lim vositalari foydalanilishi jihatidan quyidagi 3 qismga ajratish mumkin:

• ta’lim beruvchi uchun; • ta’lim oluvchi uchun; • dars o’tkazish uchun.

Ta’lim beruvchi uchun vositalar: o’quv-metodik qo’llanmalar, uslubiy tavsiyalar, uslubiy ishlanmalar, o’quv dasturlari, dars rejasi, ma’ruza matni. Ta’lim oluvchi uchun vositalar: darsliklar, o’quv qo’llanma, jadvallar, test savollari varaqasi, tarqatma materiallar, topshiriq varaqalari va hokazolar. Dars o’tkazish uchun vositalar: plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalar, texnik vositalar, real vositalar. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchi uchun mo’ljallangan ta’lim vositasi ta’lim beruvchi uchun ham, dars o’tkazish uchun ham talab etiladi. Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to’ldirishi kerak. Bundan tashqari talabalar dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim vositalarining xususiyatlariga ko’ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar (20-rasm).



20-rasm. Talabalar dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim vositalari turlari

Tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodik tizimini quyidagi asosiy tarkibiy qismlar orqali ifodalash mumkin:

1. Maqsadli komponent. Ushbu komponent talabalarda tabiat qonuniyatlarini ilmiy anglash, tabiiy jarayonlarni tahlil qilish, ekologik tafakkur va ilmiy xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Bunda ta’limning yakuniy maqsadi faqat bilim berish emas, balki olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay oladigan, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

2. Mazmunli komponent. Mazkur komponent tabiiy fanlar mazmunini zamonaviy ilmiy yutuqlar, innovatsion kashfiyotlar va hayotiy muammolar bilan boyitishni nazarda tutadi. Biologiya, kimyo, fizika, ekologiya, geografiya va boshqa fanlar mazmunini o‘zaro integratsiyalash orqali talabalarda olamning yaxlit ilmiy manzarasi shakllantiriladi. Masalan, suv tanqisligi muammosini o‘rganishda suvning fizik-kimyoviy xususiyatlari, o‘simliklar fiziologiyasi, tuproq ekologiyasi va geografik omillarni birgalikda tahlil qilish mumkin.

3. Jarayonli komponent. Bu komponent ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik metodlar, texnologiyalar va vositalarni qamrab oladi. Muammoli ta’lim, interfaol mashg‘ulotlar, laboratoriya tajribalari, ilmiy loyihalar, munozaralar va tadqiqot ishlari mazkur jarayonning samaradorligini oshiradi.

4. Motivatsion komponent. Talabalarda tabiiy fanlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, ilmiy yangiliklarga intilish, tabiat hodisalarini mustaqil kuzatish va tadqiq etish ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda pedagog talabaning individual qiziqishlari va intellektual imkoniyatlarini hisobga olishi zarur.

5. Baholash-natijaviy komponent. Ushbu komponent talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini aniqlash, ularning ilmiy tafakkuridagi o‘zgarishlarni baholash hamda metodik tizim samaradorligini tahlil qilishga qaratiladi.

Mazkur komponentlarning o‘zaro uzviy aloqadorligi tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning yaxlit metodik tizimini vujudga keltiradi.

Tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyati

Hozirgi ta’lim jarayonida an’anaviy o‘qitish metodlari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki talabaning ilmiy dunyoqarashi faqat ma’ruza tinglash yoki nazariy ma’lumotlarni yodlab olish orqali to‘liq shakllanmaydi. Buning uchun u bevosita kuzatish, tajriba o‘tkazish, tahlil qilish, taqqoslash va mustaqil xulosa chiqarish faoliyatiga jalb etilishi lozim.

Tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda quyidagi pedagogik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Muammoli ta’lim texnologiyasi. Ushbu yondashuvda talabalarga muayyan ilmiy muammo yoki savol taqdim etiladi. Ular mavjud bilimlariga tayangan holda muammoning sabablarini aniqlaydilar, turli taxminlarni ilgari suradilar va ilmiy dalillar asosida yechim ishlab chiqadilar. Masalan, “Nima sababdan ayrim o‘simliklar qurg‘oqchilik sharoitida ham o‘sish va rivojlanishini davom ettira oladi?” degan savol orqali o‘simliklar fiziologiyasi, suv almashinuvi, fotosintez va moslanish mexanizmlarini o‘rganish mumkin.

Tadqiqotga asoslangan ta’lim. Bu metod talabalarning ilmiy izlanish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalar kuzatish, tajriba, o‘lchash, natijalarni qayd etish, jadval va diagrammalar tuzish hamda ilmiy xulosalar chiqarish jarayonlarida faol ishtirok etadilar. Mazkur yondashuv orqali ularda ilmiy bilish metodlaridan foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi.

Fanlararo integratsiyalashgan ta’lim. Tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda fanlararo integratsiya alohida o‘rin tutadi. Chunki tabiat hodisalarini faqat bitta fan doirasida tushuntirish ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi. Masalan, fotosintez jarayonini o‘rganishda biologik qonuniyatlar bilan bir qatorda yorug‘likning fizik xususiyatlari, kimyoviy reaksiyalar va energiya

almashinuvi jarayonlari ham tahlil qilinadi. Bu esa talabalarda fanlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglash imkonini beradi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari. Elektron ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, animatsiyalar, 3D modellar, simulyatsiyalar va multimedia vositalari murakkab tabiiy jarayonlarni ko‘rgazmali tushuntirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, hujayra tuzilishi, DNK replikatsiyasi, oqsil biosintezi, fotosintez, mitoz va meyoz kabi jarayonlarni vizual modellashtirish talabalarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Loyihaviy ta’lim texnologiyasi. Talabalar muayyan mavzu yuzasidan kichik ilmiy loyihalar tayyorlaydilar. Masalan, “Hududimizda suv resurslaridan oqilona foydalanish”, “Iqlim o‘zgarishining o‘simliklar rivojlanishiga ta’siri”, “Atrof-muhit ifloslanishining biologik xilma-xillikka ta’siri” kabi loyihalar orqali nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan bog‘lanadi.

3.2. O’tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalarining tahlili

Inson dunyoga kelar ekan, u yashashi, ulg’ayib borishi bilan o’z hayoti haqida, kundalik ishlari haqida, hayotdagi o’z quvonch va tashvishlari, baxti va baxtsizligi haqida, o’zining va o’z atrofidagi kishilarning tug’ilishi, yashashi, olamdan o’tishi haqida, narsa va hodisalarning esa o’zgarishi, rivojlanishi, boshqa yangi narsa va hodisalarning paydo bo’lishi haqida ma’lum tasavvurlarga, tushunchalarga ega bo’lib boradi. Bu tasavvurlar va tushunchalar uning borliqni, o’zi yashayotgan dunyoni qanday tushunishi, dunyodagi o’z o’rnini qanday anglashini ifodalaydi. Bular insonning dunyo to’g’risidagi oddiy ong darajasidagi qarashlaridir. Dunyoqarash - olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir. Dunyoqarash oddiy, kundalik ong holatidan tortib, dunyoni insonning o’ziga xos nisbatan murakkabroq va chuqurroq bilish va tushunishlariga oid mifologik, diniy va falsafiy

dunyoqarashlarga tomon rivojlanib boradi. Dunyoqarash - dunyoga va insonning undagi o’rniga, kishilarning o’z atrofidagi voqelikka va o’z-o’ziga munosabatiga bo’lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e’tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari hisoblanadi. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog’liq. Dunyoqarash insonning o’zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi.

Tibbiyot instituti talabalariga “Biologiya” fanini o’qitish jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiya usullaridan biri bo’lgan SWOT-tahlil (analiz, analysis) usulini qo’llash barcha talabalarga o’z mutaxassisligi bo’yicha bilimlarni, metodlarni, o’simlik va hayvon turlarini, kasalliklarni o’rganishda eng samarali hisoblanadi (48-betdagi 9-rasm). Unga ko’ra o’rganilayotgan obyektning kuchli tomonlari-Strengths (S), kuchsiz, zaif tomonlari-Weaknesses (W), imkoniyatlari-Opportunities (O) va xavf, to’siqlar-Threats (T) tomonlari chuqur o’rganilib, muzokara orqali tinglovchilar orasida tahlil qilinadi.

Ushbu tahlil usulining kuchli (S) va kuchsiz (W) tomonlari tahlil etilayotgan obyektning ichki sharoit omillari hisoblanib, obyektga bevosita bog’liq bo’lgan omillardir. Usulning imkoniyatlar (O) va xavf, to’siqlar (T) tomoni tashqi sharoit omillari hisoblanib, obyektga bog’liq bo’lmagan va obyektga tashqaridan ta’sir etuvchi omillar sanaladi.

Ilmiy tadqiqotimiz obyektidagi talabalar asosan tibbiyot institutining talabalari bo’lganligi sabab tadqiqotimiz natijalari sifatida respondentlarimiz bilan SWOT-tahlili interfaol usulini ham kasalliklar va tibbiyot sohasi doirasida o’tkazdik.

Talabalar turli kasalliklar va turli xildagi tibbiy diagnostik usullar ustida SWOT-tahlillari bajarishgan bo’lsada, biz dissertatsiyamizni yoritish jarayonida bo’lajak tibbiyot vakillari, ya'ni bo’lajak shifokorlarning “Tibbiy biologiya” kafedrasi professor-o’qituvchilariga eng ma'qul bo’lgan ikkita SWOT-tahlilini misol tariqasida yoritishni afzal ko’rdik. Tibbiyot instituti talabalarining ta’lim

jarayonida kasalliklarni tashxislash, davolash va olib borishda axborot kommunikativ texnologiyalarning yangi SWOT-tahlil usulini qo'llash eng samarali usuldir. Respublikamizning bir qator tibbiyot institutlarida, biologiya ta'lim yo'nalishlarida, barcha turdagi kasalliklar to'g'risida ham chuqur ma'lumotlar berish, kasalliklar zamonaviy texnologiyalar asosida innovatsion usullar orqali o'rgatilishi ularning tajribalarini oshiradi.

Ya'ni, bolalar o'rtasida ko'p kuzatiladigan surunkali tonzillit kasalligini davolash choralaridan bo'lgan tonzillektomiya (TEK) jarrohlik amali o'tkazilishiining SWOT tahlili (21-rasm) va bolalarda profilaktik emlash (vaksinatsiya) muolajalari o'tkazilishining SWOT tahlillarini keltirdik (22-rasm).

S Strengths – Kuchli tomonlari	W Weaknesses – Zaif tomonlari
• Konservativ davo samarasiz bo'lganda eng samarali usul; • Kasallikning oqibatlari va asoratlari bartaraf etiladi; • LOR jarrohligidagi eng kosmetik amallardan biri; • Reabilitatsiyaning kamligi; • Kam invaziv usul; • Kam travmatik (jarohat) usuli; • Bira to'la ayrim boshqa jarrohlik amallarini ham bitta umumiy narkoz davomida bajarish mumkin (adenotomiya, konxotomiya, burun to'sig'i egriligini to'g'rilash);	• Jarrohlik amalidan keyin qon ketishi mumkin; • Tajribasiz jarroh sabab kosmetik chiqmasligi mumkin; • O'lim kuzatilishi mumkin (kamdan-kam, hatto tajribali jarrohlarda ham o'lim holatlari kuzatilgan); • Jarrohning tajribasizligi; • Organizmning umumiy immuniteti kamayadi; • Organizmning va mazkur a'zoning (tanglay murtagi) mahalliy himoya vazifasi yo'qoladi; • Ko'p hollarda surunkali subatrofik faringit kelib chiqadi;
O Opportunities – imkoniyatlar	**T Threats – Xavflar, to'siqlar**
• Tez-tez angina bo'lmaydi; • Atrofdagilarga, oila a'zolariga kasallik boshqa yuqmaydi va xavf tug'dirmaydi (chunki kasallik o'tkir davrda yon atrofdagilargi yuqumli); • Qisqa vaqt talab qiladi; • Bir kunlik jarrohlik vaqtida bir necha bemorda o'tkazish mumkin; • Operatsiyaga tayyorgarlikka qisqa vaqt ketadi; • Tahlillar arzon va muammosiz hamma joyda mavjud;	• Ota-onalarni qarshiligi, ishonchsizligi, uquvsizligi; • Ota-onaning jarrohlik amaliyotidan keyingi parvarishni yaxshi bilmasligi; • TEK oxirgi chora ekanligini bilmasligi; • Ota-ona sog'lom bolasini ham vrachning ko'r-ko'rona maslahati bilan operatsiyaga tayyorlashi mumkin; • Jarroh hatto (o'z maqsadi yo'lida yoki boshqa sabablarda) umuman sog'lom patsientni ham operatsiyaga olishi mumkin; • Bolada operatsiyaga qarshi ko'rsatmalar bo'lishi mumkin;

21-rasm. Surunkali tonzillit kasalligi bilan og'rigan bolalarda tonzillektomiya (TEK) jarrohlik amali o'tkazilishiining SWOT tahlili

S Strengths – Kuchli tomonlari	W Weaknesses – Zaif tomonlari
• Emlashdan so'ng samarali immunitet rivojlanishi; • Kasalliklardan himoya; • Epidemiyalarning oldini olinishi; • Tezkor profilaktikada samarali usul hisoblanadi; • 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'lim ko'rsatkichining pasayishi	• Nojo'ya ta'sirlar (allergic reaksiyalar, isitmaning ko'tarilishi); • Travmatizatsiya (inyeksiya sohalarida)
O Opportunities – Imkoniyatlar	**T Threats – Xavflar, to'siqlar**
• Polivalent vaksinalarning yaratilishi; • Kasallikni davolashga ketadigan xarajatlar tejalishi; • Rejali emlash taqvimi dasturiga kiritilgan vaksinalarning bepul qilinishi; • 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'lim ko'rsatkichining pasayishi	• Immunizatsiyaga qarshi bo'lgan ayrim oqimlar harakatlari; • Ota-onalarda immunizatsiyaga nisbatan ishonchsizlik yoki bosh tortishi; • Emlanayotgan bolada emlashga qarshi

22-rasm. Bolalarda emlash (vaksinatsiya) muolajalari o'tkazilishiining SWOT tahlili

Talabalar dunyoqarashini rivojlantirish jarayonida pedagoglarning vazifalarini o'rnini o'rganish borishda asosan quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

- tadqiqot ishlari Buxoro davlat tibbiyot institutida (BuxDTI) o'tkazilib, unda institutda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar, Xalqaro (xorijiy) fakultetda Rossiya, Polsha va Turkiya davlatlari tibbiyot oliygohlari bilan memorandum shartnoma asosida ta'lim olayotgan aksariyati O'zbekistonlik talabalar, shuningdek, memorandum shartnoma asosida BuxDTIda tahsil olayotgan Hindiston va Turkmanistonlik talaba qizlar (70 ta, 1-guruh) va institutda ta'lim olayotgan o'zbekistonlik talaba qizlarning (70 ta, 2-guruh) chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik natijalari o'rganildi (23-rasm);



23-rasm. Magistr Aminjonova Charos Xalqaro fakultet hamda o’zbekistonlik talabalar bilan mashg’ulotda

- talaba qizlarning sog’lom turmush tarzi to’g’risidagi intellektual tushunchalarini baholash uchun maxsus tuzilgan so’rovnoma (5 – 9 - jadvallar);

- tekshiruvimizda bo’lgan har ikkala guruhdagi talabalarning chuqur tibbiy ko’rik natijalari qayd qilingan talabalarning forma 112-u ambulator kartasi o’rganib, tahlil qilindi;

- guruhlarda kasallik aniqlangan talabalarni davolash va profilaktik sog’lomlashtirish ishlari tahlil qilindi;

- guruhlardagi talabalarning ayrim kasalliklar ko’rsatkichining tahliliy sharhi;

- guruhlarda kasalliklar aniqlanganda ko’rsatmaga ko’ra instrumental tekshirish usullari va mutaxassislar ko’ruvi tahlili;

- tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, nafaqat OTM sport to’garaklarida ishtirok etadigan talaba qizlar uchun, balki sport bilan uzoq shug’ullanmaydigan talaba qizlar uchun tavsiyalar ishlab chiqish.



24-rasm. Magistr Aminjonova Charos Xalqaro fakultet talabalari bilan so’rovnoma o’tkazish jarayonida

Talaba qizlarning harakat tartibini tuzish, ularning sog’ligini saqlash hamda mustahkamlash va har tomonlama jismoniy rivojlanishda faol harakat tartibi asosiy omillardan hisoblanadi. Harakat, ya’ni jismoniy mashqlar, avvalo organizmning barcha tizimlari: asab, yurak-qon tomir, nafas, skelet, muskul va mushak tizimlarining rivojlanishi uchun juda zarur.


Sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish har bir yigit-qizlarda ular baxtini, salomatligini, odob-axloqini, yaxshi niyatini, dili pokligini, xushxulqligini, haqiqiy insoniyligini, o’zgalarga hurmat hissi kabi barcha yaxshi fazilatlarini uyg’otadi.

Tadqiqotimiz davomida talaba qizlarning sog’lom turmush tarzi to’g’risidagi intellektual tushunchalarini baholash uchun tuzilgan maxsus so’rovnomamiz tahliliga ko’ra 1-guruhda 4 ta (5.7%) talaba, 2-guruhda esa 22 ta (31.4%) turmushga chiqqanligi, 1-guruhdagi barcha 4 ta (5.7%) talaba ham 22

yoshdan keyin turmushga chiqqan 2-guruhdagi qizlarning ko’pchiligi esa 22 yoshgacha turmushga chiqqanligi aniqlandi (25-rasm). 1-guruhda 4 ta (5.7%) talaba, 2-guruhda esa 22 ta (31.4%) turmushga chiqqanligi, 1-guruhdagi ko’pchilik qizlar (56 ta (80.0%) 22 yoshdan keyin talaba qizlar oliygohni tugatgandan keyin turmush qurishini ta’kidlasa, 2-guruhdagi qizlarning 16 tasi (22.9%) qiz bola uchun turmush qurish 22 yoshgacha ma’qulligini bildirishi aniqlandi.

Guruhlardagi qizlarning sog’lom turmush tarzi to’g’risidagi bilim saviyasi bo’yicha 1-guruhda ko’pchiligi (42 ta (60.0%) qiz bola necha yoshda turmush qurishga tayyor bo’lishi haqida aniq yoshni ko’rsata olmasligi, ularning 28 tasigina (40.0%) 22 yoshgacha tayyor bo’lishini ta’kidlashgan bo’lishsa, 2-guruhdagi talabalarning ko’pchiligi (54 ta (77.1%) qizlar 22 yoshda organizmi mustaqil turmushga tayyorligini bildirishi 2-guruhdagilarning o’zbek milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda urf-odatlarimizni yaxshi bilishidan dalolat beradi.

1-guruhda har kungi badan-tarbiya mashqlari bilan shug’ullanishi (mos ravishda 62 (88.6%) ga 8 (11.4%) va sport to’garaklariga ishtirok etishi (mos ravishda 62 (88.6%) ga 3 (4.3%) ko’p kuzatildi. 1-guruhda anamnezida tez-tez shamollab turishi (mos ravishda 18 (25.7%) ga 48 (68.6%) 2-guruhga nisbatan kam kuzatilishi esa, shuningdek qizlar yengil shamollaganda shifokor maslahati bilan birga chiniqtirish mashqlarini ko’proq davom ettirishi 1-guruhda ko’pchilikni tashkil etishi (mos ravishda 54 (77.1%) ga 6 (8.6%) ushbu guruh qizlarining turli millat mentalitetlariga xos bo’lgan urf-olatlardan dalolatdir.



25-rasm. Talabalarning sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi intellektual tushunchalarini baholash

BuxDTIdagi talabalar tibbiyot punktiga (xonasiga) berkitilgan tibbiyot xodimlari (shifokor va hamshiralar) tomonidan barcha talabalar o'z vaqtida reja asosida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan muntazam ravishda o'tkazilishiga qaramay, ushbu tuzilgan maxsus so'rovnomamiz bo'yicha 1-guruhda rejadan tashqari o'z xoxishi bilan ham tibbiy ko'rikdan o'tadigan talaba qizlar 2-guruhga nisbatan ko'p kuzatilishi (mos ravishda 26 (37.1%) ga 2 (2.9%) Xalqaro fakultetida ta'lim olayotgan qizlar ko'p hollarda institut tibbiy punktining reja asosida muntazam ravishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklardan o'tkazilib turishi bilan tushuntiriladi.

Tekshiruvimizdagi guruhlardagi talaba qizlarning chuqur tibbiy ko'rik natijalari qayd qilingan forma 112-u ambulator kartasi o'rganib, tahlil qilinganda 2-guruhda 1-guruhga nisbatan eng ko'p kuzatiladigan kasalliklardan o'tkir respirator virusli infeksiyalar (O'RVI, mos ravishda 45.7% ga 21.4%), gastrit (mos ravishda 38.6% ga 11.4%), burun yondosh bo'shliqlari kasalliklaridan xususan gaymorit (mos ravishda 34.3% ga 12.9%), kamqonlik (mos ravishda

31.4% ga 20.0%), endemik bo’qoq (mos ravishda 20.0% ga 7.1%) va oshqozon yara kasalligi (YaK, (mos ravishda 15.7% ga 5.7%) ko’p kuzatildi.

Bugungi kunda talaba-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, ularning jismoniy faolligini oshirish, sport mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda jismoniy va ma’naviy barkamolligini ta’minlash jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talaba-qizlarning sog‘lom turmush tarziga amal qilishi ularning kelajakdagi oilaviy hayoti, ijtimoiy faolligi va farzand tarbiyasidagi mas’uliyatini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga ega bo‘lgan, jismoniy faollikning inson salomatligiga ta’sirini chuqur anglagan ayol kelajakda oilada sog‘lom muhitni qaror toptirish, farzandlarining jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga e’tibor qaratish hamda ularda foydali hayotiy odatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan, onaning shaxsiy namunasi, sog‘lom ovqatlanish, kun tartibiga rioya qilish, jismoniy faollik va gigiyenik madaniyatga amal qilishi farzand tarbiyasida samarali pedagogik ta’sir vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Sog‘lom turmush tarziga mehr qo‘ygan talaba-qizlar kelajakda nafaqat o‘z salomatligiga mas’uliyat bilan yondashadigan, balki oilasida ham jismoniy tarbiya va sportga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradigan faol tarbiyachi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular farzandlarini yoshligidan jismoniy faollikka yo‘naltirish, sport mashg‘ulotlariga jalb etish, to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom kun tartibiga rioya qilishga o‘rgatish orqali sog‘lom avlod tarbiyasiga munosib hissa qo‘shadilar. Natijada sog‘lom turmush tarzi alohida shaxsning kundalik odatidan oilaviy qadriyatga, undan esa jamiyat miqyosidagi ijtimoiy madaniyatga aylanib boradi.

5-jadval

Talabalarning sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi intellektual tushunchalarini baholash uchun so'rovnoma

	Savollar	Javoblar
	I. Umumiy ma'lumotlar (talaba o'zi to'ldiradi)	
1	Ismi, sharifi, otasining ismi	
2	Yoshi	
3	Turmush qurganmi ?	- yo'q - ha
4	Necha yoshda turmush qurgan ?	- 16 yoshgacha - 17-18 yosh - 19-20 yosh - 21-22 yosh - 23-24 yosh - 25 yoshdan keyin - 30 yoshdan keyin - bilmaydi
	II. Asosiy qism (talaba o'zi to'ldiradi)	
5	Qiz bola necha yoshdan turmush qurgan ma'qul ?	- 16 yoshgacha - 17-18 yosh - 19-20 yosh - 21-22 yosh - 23-24 yosh - 25 yoshdan keyin - 30 yoshdan keyin - bilmaydi
6	Qiz bola necha yoshda turmush qurishga tayyor bo'ladi ?	- 16 yoshgacha - 17-18 yosh - 19-20 yosh - 21-22 yosh - 23-24 yosh - 25 yoshdan keyin - 30 yoshdan keyin - bilmaydi
7	Har kungi badan-tarbiya mashqlarini bajarasizmi ?	- yo'q - ha - onda-sonda
8	Sport to'garagiga borasizmi ?	- yo'q - ha
9	Qanday sport to'garagi bilan muntazam shug'ullanasiz ?	
10	Tez-tez shamollab turasizmi ?	- yo'q - yiliga 1-2 marta - yiliga 3-4 marta
11	Yengil shamollaganingizda tibbiyot xodimga murojaat qilasizmi ?	- yo'q - ha - sport mashqlarini to'xtataman - chiniqtirish mashqlari bilan shug'ullanaman - sport mashqlarini davom ettiraman
12	Qattiq shamollaganingizda tibbiyot xodimiga murojaat qilasizmi ?	- yo'q - ha - sport mashqlarini to'xtataman - chiniqtirish mashqlari bilan shug'ullanaman - sport mashqlarini davom ettiraman
13	Yengil shamollaganingizda qanday davolash choralarini qo'llaysiz ?	- umuman yo'q - faqat shifokor maslahatini - shifokor maslahati bilan birga chiniqtirish mashqlarini davom ettiraman
14	Qattiq shamollaganingizda qanday davolash choralarini qo'llaysiz ?	- umuman yo'q - faqat shifokor maslahatini - shifokor maslahati bilan birga chiniqtirish mashqlarini davom ettiraman
	III. Tibbiy ma'lumotlar (tibbiy xodim to'ldiradi)	
15	Muntazam o'z vaqtida tibbiy qo'rikdan o'tadimi	- reja asosida - muntazam - rejadan tashqari o'z xoxishi bilan ham o'tadi
16	Umumiy qon tahlili	
17	Ko'krak qafasi yoki boshqa a'zolar rentgenografiyasi natijasi (ko'rsatmaga ko'ra)	
18	Elektrokardiogramma natijasi (ko'rsatmaga ko'ra)	
19	Aniqlangan kasalliklar tashxisi	
20	Ambulator davolangan	- yo'q - ha (sanasi yoki necha marotaba)
21	Stasionar davolangan	- yo'q - ha (sanasi yoki necha marotaba)

Таблица № 6

Опросник для оценки интеллектуального восприятия студентами здорового образа жизни

	Вопросы	Ответы
	I. Общие сведения (студент заполняет сам)	
1	Фамилия, имя, отчество	
2	Возраст	
3	Состоите ли вы в браке?	- нет -да
4	Сколько Вам было лет, когда Вы вышли за муж ?	- 16 лет - 17-18 лет - 19-20 лет - 21-22 лет - 23-24 лет - 25 лет - 30 лет - не знает
	II. Основная часть (студент заполняет сам)	
5	В каком возрасте девушке следует выходить замуж?	- 16 лет - 17-18 лет - 19-20 лет - 21-22 лет - 23-24 лет - 25 лет - 30 лет - не знает
6	В каком возрасте девушка будет готова выйти замуж?	- 16 лет - 17-18 лет - 19-20 лет - 21-22 лет - 23-24 лет - 25 лет - 30 лет - не знает
7	Вы ежедневно занимаетесь спортом?	- нет - да - иногда
8	Вы ходите регулярно в спорт зал?	- нет - да
9	В каком спортивном клубе вы регулярно занимаетесь?	
10	Вы часто простудитесь?	- нет - 1-2 раза в год - 3-4 раза в год
11	Вы обращаетесь за медицинской помощью при легкой простуде?	- нет - да - Я перестаю тренироваться - делаю закаливающие упражнения - продолжу заниматься спортом
12	Вы обращаетесь к врачу, когда сильно простужаетесь?	- нет - да - Я перестаю тренироваться - делаю закаливающие упражнения - продолжу заниматься спортом
13	Какие лечебные меры вы принимаете при легкой простуде?	- совсем нет - просто обратитесь к врачу - закаливание по рекомендации врача Я продолжу свое упражнение
14	Какие лечебные меры вы принимаете при сильной простуде?	- совсем нет - просто обратитесь к врачу - закаливание по рекомендации врача Я продолжу свое упражнение
	III. Медицинская информация (заполняется медперсоналом)	
15	Следует ли своевременно проходить регулярные медицинские осмотры	- по плану - регулярно - выходит за рамки плана и по желанию
16	Общий анализ крови	
17	Рентгенограммы грудной клетки или других органов (по назначению)	
18	Результат электрокардиограммы (согласно инструкции)	
19	Диагностика выявленных заболеваний	
20	Амбулаторное лечение	- нет - да (дата или сколько раз)
21	Стационарное лечение	- нет - да (дата или сколько раз)

Table № 7

A survey to assess students' intellectual perceptions of healthy lifestyles

	Questions	Answers
	I. General information (student fills in himself)	
1	Name, surname, father's name	
2	Age	
3	Are you married?	- no - yes
4	How old were you when you got married?	- Under 16 years - 17-18 years - 19-20 years - 21-22 years - 23-24 years - After 25 years - After 30 years - do not know
	II. Main part (student fills in himself)	
5	At what age should a girl get married?	- Under 16 years - 17-18 years - 19-20 years - 21-22 years - 23-24 years - After 25 years - After 30 years - do not know
6	At what age will a girl be ready to get married?	- Under 16 years - 17-18 years - 19-20 years - 21-22 years - 23-24 years - After 25 years - After 30 years - do not know
7	Do you exercise daily?	- no - yes - онда-сонда
8	Do you go to the gym?	- no - yes
9	What kind of sports club do you do regularly?	
10	Do you get colds often?	- no - 1-2 times a year - 3-4 times a year
11	Do you seek medical attention when you have a mild cold?	- no - yes - I stop exercising - I do hardening exercises - I will continue sports
12	Do you see a doctor when you have a bad cold?	- no - yes - I stop exercising - I do hardening exercises - I will continue sports
13	What treatment measures do you take when you have a mild cold?	- not at all - just consult a doctor - hardening with a doctor's advice I will continue my exercise
14	What treatment measures do you take when you have a severe cold?	- not at all - just consult a doctor - hardening with a doctor's advice I will continue my exercise
	III. Medical information (filled in by medical staff)	
15	Whether to undergo regular medical examinations in a timely manner	- according to the plan - regularly - goes beyond the plan and at will
16	General blood test	
17	Chest or other organ radiographs (as directed)	
18	Electrocardiogram result (according to the instructions)	
19	Diagnosis of identified diseases	
20	Outpatient treatment	- no - yes (date or how many times)
21	Inpatient treatment	- no - yes (date or how many times)

Tablo № 8

Öğrencilerin sağlıklı yaşam tarzlarına ilişkin entelektüel algılarını değerlendirmek için bir anket

	Sorular	Yanıtlar
	I. Genel bilgiler (öğrenci kendi içinde doldurur)	
1	Adı, soyadı, babasının adı	
2	Yaş	
3	Evli misiniz?	- hayır - evet
4	Evlendiğinde kaç yaşındaydın	- 16 - 17-18 yaş - 19-20 yaş - 21-22 yaş - 23-24 yaş - 25 yıl sonra - 30 yıl sonra - bilmiyorum
	II. Ana kısım (öğrenci kendini doldurur)	
5	Bir kız kaç yaşında evlenmeli?	16 - 17-18 yaş - 19-20 yaş - 21-22 yaş - 23-24 yaş - 25 yıl sonra - 30 yıl sonra - bilmiyorum
6	Bir kız hangi yaşta evlenmeye hazır olur?	16 - 17-18 yaş - 19-20 yaş - 21-22 yaş - 23-24 yaş - 25 yıl sonra - 30 yıl sonra - bilmiyorum
7	Günlük egzersiz yapıyor musun?	- hayır - evet - zamandan zamana
8	Spora gider misin?	- hayır - evet
9	Düzenli olarak ne tür spor kulüpleri yaparsınız?	
10	Sık sık üşütür müsün?	- hayır - yılda 1-2 defa - yılda 3-4 defa
11	Hafif soğuk algınlığınız olduğunda tıbbi yardım ister misiniz?	- hayır - evet - egzersiz yapmayı bırakıyorum - Sertleştirme egzersizleri yapıyorum - Spora devam edeceğim
12	Soğuk algınlığınız olduğunda doktora gidiyor musunuz?	- hayır - evet - egzersiz yapmayı bırakıyorum - Sertleştirme egzersizleri yapıyorum - Spora devam edeceğim
13	Hafif soğuk algınlığınız olduğunda hangi tedavi önlemlerini alıyorsunuz?	- hiç de değil - sadece bir doktora danışın - bir doktor tavsiyesi ile sertleşme Egzersizime devam edeceğim
14	Şiddetli soğuk algınlığınız olduğunda hangi tedavi önlemlerini alıyorsunuz?	- hiç de değil - sadece bir doktora danışın - bir doktor tavsiyesi ile sertleşme Egzersizime devam edeceğim
	III. Tıbbi bilgiler (tıbbi personel tarafından doldurulur)	
15	Zamanında düzenli tıbbi muayenelere girip girmeme	- plana göre - düzenli olarak - planın ötesine geçer ve istediği zaman
16	Genel kan testi	
17	Göğüs veya diğer organ radyografileri (belirtildiği gibi)	
18	Elektrokardiyogram sonucu (talimatlara göre)	
19	Tespit edilen hastalıkların teşhisi	
20	Ayakta tedavi	- hayır - evet (tarih veya kaç kez)
21	Yatarak tedavi	- hayır - evet (tarih veya kaç kez)

Sog’lom farzand sog’lom muhit mavjud bo’lgan ahil oilada kamol topadi. Aslida o’zbekona mentalitetning asosini ham bolaparvarlik tashkil etadi. Sog’lom bolaning dunyoga kelishi, baquvvat bo’lib ulg’ayishi millatimiz


kelajagi uchun katta ahamiyatga ega. Ayonki, sog'lom bola sog'lom onadan tug'iladi, sog'lom turmush tarzi qaror topgan oilada voyaga yetadi. Bu esa ayollarga, xotin-qizlarga, xususan OTMlarda ta'lim olayotgan talaba qizlarimizga yanada ko'proq e'tibor qaratish, ularni qadrlash, qo'llab-quvvatlash, turli kasalliklardan himoya qilish, asrab-avaylash lozimligini taqozo etadi.

Tekshiruvimizdagi guruhlarning "Biologiya" fani bo'yicha bilim saviyasini va umumta'lim maktablari, kollej va litseylarda ushbu fan bo'yicha olgan bilim bazalarini o'rganish jarayonida, ya'ni tibbiyot institutidagi "Biologiya" fanini dastur asosida o'qitish jarayonida "Tibbiy biologiya" kafedrasidagi o'qituvchi-professorlarning fikrlari va talabalarning ushbu fan bo'yicha o'quv jarayonlarini qayd etib boriladigan "guruh jurnallari"ning tahliliga ko'ra 1-guruhga nisbatan 2-guruhdagi, ya'ni o'zbekistonliklardan tashkil topgan guruhda xorijiy talabalar guruhiga nisbatan "Biologiya" fani bo'yicha nazariy va amaliy bilim saviyalari biroz yuqoriligi qayd etildi (mos ravishda "5" baho 31.4% ga 24.3%, "4" baho 52.9% ga 44.3%, "3" baho 15.7% ga 31.4% va qoniqarsiz "2" bahoda o'qiydigan talabalar har ikkala guruhda ham kuzatilmadi, 9-jadval va 26-rasm).

9-jadval

Talabalarning guruhlarda "Biologiya" fani bo'yicha bilim salohiyati ko'rsatkichi

Guruhlar	Baholash		"5" – 86% ≤		"4" – 71-85%		"3" – 56-70%		"2" – 55% ≥	
	Abs.	Foiz	Abs.	Foiz	Abs.	Foiz	Abs.	Foiz	Abs.	Foiz
O'zbekiston	70	100	22	31.4	37	52.9	11	15.7	-	-
Xorijiy talabalar	70	100	17	24.3	31	44.3	22	31.4	-	-
Jumladan:										
Rossiya	14	20.0	5	7.1	7	10.0	2	2.9	-	-
Polsha	14	20.0	4	5.7	5	7.1	5	7.1	-	-
Turkiya	14	20.0	5	7.2	8	11.4	1	1.4	-	-
Hindiston	14	20.0	2	2.9	5	7.2	7	10.0	-	-
Turkmaniston	14	20.0	1	1.4	6	8.6	7	10.0	-	-




26-rasm. Talabalarning guruhlarda “Biologiya” fani bo’yicha bilim salohiyati ko’rsatkichi

Bu ko’rsatkichlarning sabablarini chuqurroq tahlil qilish jarayonida 1-guruhni tashkil etgan Xalqaro (xorijiy) fakultet talabalarini o’zini alohida mamlakatlar bo’yicha o’rganilganda, Rossiya, Polsha va Turkiya davlatlari tibbiyot oliygohlari bilan shartnoma asosida ta’lim olayotgan talabalarning aksariyati O’zbekistonlik talabalar bo’lgani sabab Hindiston va Turkmanistondan tashrif buyurgan talabalarga nisbatan “Biologiya” fani bo’yicha bazaviy bilim saviyasi va ushbu fan bo’yicha tabiiy-dunyoqarashi ancha yuqori ekanligi aniqlandi (mos ravishda “5” baho 35.7%, 28.6%, 35.7% ga 14.3%, 7.9%, “4” baho 50.0%, 35.7%, 57.1% ga 35.7%, 42.8%, “3” baho 14.3%, 35.7%, 7.2% ga 50.0%, 50.0%, 10-jadval va 27-rasm).

10-jadval

Mamlakatlardagi talabalarda “Biologiya” fani bo’yicha bilim salohiyati ko’rsatkichi

Guruhlar	Baholash		“5” – 86% ≤		“4” – 71-85%		“3” – 56-70%		“2” – 55% ≥	
	Abs.	Foiz	Abs.	Foiz	Abs.	Foiz	Abs.	Foiz	Abs.	Foiz
O’zbekiston	70	100	22	31.4	37	52.9	11	15.7	-	-
Rossiya	14	100	5	35.7	7	50.0	2	14.3	-	-
Polsha	14	100	4	28.6	5	35.7	5	35.7	-	-
Turkiya	14	100	5	35.7	8	57.1	1	7.2	-	-
Hindiston	14	100	2	14.3	5	35.7	7	50.0	-	-
Turkmaniston	14	100	1	7.9	6	42.8	7	50.0	-	-



27-rasm. Mamlakatlardagi talabalarda “Biologiya” fani bo’yicha bilim salohiyati ko’rsatkichi

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

I. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi PQ-4884-son qarori.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-sonli qarori.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to`g`risidagi qarori // Xalq so`zi. – 2017. – 12 aprel.

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PF-6108-son Farmoni.

5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi "Ta’lim muassasalarida chet tillarini o’qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida "gi 610-sonli qarori.

6. Karimov I.A. Bizning yo’limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo’lidir: O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligini 19 yilligi munosabati bilan ma’ruza // Xalq so’zi, 2011 yil 8 dekabr.

II. Prezident asarlari:

7. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” T.:, “Sharq”, 1999-yil. 148 b.

8. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. 5-j. – T.: O’zbekiston. - 1997. – 384 b.

9. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” Toshkent “O’zbekiston”, 2017.- 488 b.

10. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz” Toshkent “O’zbekiston”, 2017. 1-jild - 101 b.

III. Asosiy adabiyotlar:

11. Abdullayeva D.U., Sabohiddinova Sh., Jo’rayeva A. Ta’lim jarayonida pedagogik baholash va uning xususiyatlari / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 133-136.

12. Abdullayeva X.A. Mashg’ulotlarda faol ta’lim usullaridan foydalanish / – Farg’ona: FarDU, 2008. - № 10. – 36-38 b.

13. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. “Case-study” uslubi: nazariya, amaliyot, tajriba. – T.: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2012.

14. Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar / – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.

15. Aliyeva G.I. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish modeli va uni fanlarda qo’llash / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 383-385.

16. Ataboyeva N.B., Qurbanboyev A., Zokirova D. Ta’lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning psixologik rivojlanishi / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 415-419.

17. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov C. Umumiy pedagogika (2-kitob). – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 860 b.

18. Axmedjanov K.B. Oliy o’quv yurtlarida ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 15-17.

19. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O’quv qo’llanma, - T.: 2003. - TDPU.
20. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / – T.: “O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi” nashriyoti. 2006.
21. Begmatov D.I., Sharopova N.R. O’qitishning interaktiv metodlari: tanqidiy fikrlash / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 231-235.
22. Fayzullayeva D.M., Yo’lchiyeva G.T., Yo’ldasheva D. Ta’lim jarayonlarini zamonaviylashtirishda o’qituvchining uslubiy ishlarini ahamiyati / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 136-140.
23. Fayzullayeva N. Jahon ta’lim tizimi/O’quv qo’llanma. T.: TDIU, “Iqtisodiyot”, 2016.
24. Hasanboyeva O.U., Avezova R.R. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti (xrestomatiya). – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 208 b.
25. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika / O’quv qo’llanma. – Toshkent: Fan, 2004.
26. Inogamova L.I., Kuchkarova A., Oqilova Z. Ta’lim jarayonida pedagog shaxsida psixologik-pedagogik kompetentlikning namoyon bo’lishi / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 424-426.
27. Isabayeva M.M. Biologiyani o’qitishda sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarini shakllantirish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 72 b.
28. Isamitdinov S., Madg’ofurova D. Psixologiya va pedagogika asoslari (o’quv qo’llanma). – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 116 b.

29. Ismanova K. Amaliy dars mashg’ulotlarini innovatsion usullar yordamida tashkil etish. - Ta’lim muammolari jurnali. 2-son, 2012-yil.
30. Ismoilova N.Z., Raximova Yo., Mirzaeva D. Bolaninig ta’lim jarayoniga tayyorgarligini aniqlashning psixologik jihatlari / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 405-407.
31. Izbassarova R.Sh., Zhumagulova K.A. Textbook "Methodology of teaching biology" For students on specialty "Biology" // Almaty. 2016.
32. Ishmuhamedov R., Abduqarodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovasion texnologiyalar / Ta’lim muassasalari o’qituvchi-o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2009.
33. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg’ulotlari. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 116 b.
34. Karimova G.Q. Pedagogikaning asosiy masalalari. – T.: Lesson Press, 2020. – 140 b.
35. Mahmudov V., Yusupov I. Biologiyaga kirish. O’quv qo’llanma. Qo’qon – 2006.
36. Mahmudova M.M. Kattalar va bolalar munosabatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 164 b.
37. Mattiyev I.B. Talabalarda salomatlikni asrashga yo’naltirilgan tafakkurni shakllantirish // PhD dis avtoref. – T.: - 2019. – 25 b.
38. Miraliyeva D. Jahon ta’lim tizimi. O’quv uslubiy majmua. T.: Iqtisodiyot., - 2016.
39. Muslimov N., Usmonboeva M., Mirsoliyeva M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik // O’quv-uslubiy majmua, Toshkent. – 2016. – 227 b.
40. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To’rayev A. B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / - T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.

41. Mutalipova M., Imomov M. “Ta’limda ilg’or xorijiy tajribalar” moduli bo’yicha o’quv–uslubiy majmua. T.: Nizomiy nomli TDPU, 2017.
42. Narziqulova D.X. “Sog’lom bola” davlat dasturi va uning pedagogik ahamiyati // Ilmiy axborotnoma. – Samarqand, 2014. –№2. –B.116-118.
43. Никишина И.В. Инновационное педагогические технологии и организация учебно-воспитателного и методического протсессов в школе. Издателство “Учитель”. Волгоград, 2008.
44. Olimov Sh.Sh., Hasanova Z.D. Pedagogik texnologiyalarni o’quv-tarbiya jarayoniga qo’llash. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 180 b.
45. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009.
46. Otajonov U.A. Masofaviy ta’lim texnologiyasi asosida o’qitish - dolzarb pedagogik muammo sifatida / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 189-194.
47. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar Qarshi. Nasaf 2000
48. Pedagogik ensiklopediya 2017-yil 3-jild
49. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari / - T.: 2001.
50. Prince M.J., Felder R.M. Inductive teaching and learning methods / Definitions, comparisons and research basis // J. Eng. Educ. - 2006. - 95. - P.123-138.
51. Qurbonova G.A. Talabalar sog’lom turmush tarzini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning omillari / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 349-352.
52. Rabbimova F. O’quvchilarni tabiat estetikasini anglashga o’rgatishga bo’lg’usi biologiya o’qituvchilarini tayyorlash metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 208 b.

53. Rahmanova Yo.R. Pedagogik amaliyot. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 36 b.

54. Rahmonov A. Sog’lom turmush tarzi tarbiya vositasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 48 b.

55. Raximov A.K. Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (“Evolyusion ta’limot” fanini o’qitish misolida). DSc dis… avtoref. – T.: TDPU, 2019. – 28 b.

56. Rixsimboyev O.Q. Talabalar mustaqil ta’limini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalarning o’rni / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 17-19.

57. Ro’ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi. Metodik qo’llanma. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.

58. Safarova R.G’. Pedagogika Ensiklopediya (I jild). – T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – 321 b.

59. Safarova R.G’., Jo’raev R.H. Pedagogika Ensiklopediya (II jild). – T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – 377 b.

60. Sayidahmedov N., Abduvohidov S. Kasb ta’limi o’qituvchisining pedagogik faoliyati modeli. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 128 b.

61. Sayidahmedov N.S., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 336 b.

62. Sodir Isamitdinov. Psixologiya va pedagogika asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 116 b.

63. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat / –T.: TDPU, 2005.

64. Tojiyev M., Xurramov A. Ta’lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo’llaniladigan zamonaviy ta’lim usullari. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 96 b.

65. Tolipova J.O. “Biologiyani o’qitishda pedagogik texnologiyalar” - Toshkent. 2011.

66. Tolipova J.O., G’ofurov A.T. Biologiya o’qitish metodikasi. O’quv-metodik qo’llanma. T.: “Bilim”, 2004.
67. Tolipova J.O., G’ofurov A.T. Biologiya o’qitish metodikasi. Pedagogika oliy o’quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: Moliya-iqtisod. 2007.
68. Tolipova J.O., G’ofurov A.T. Biologiya ta’limi texnologiyalari T.: O’qituvchi. 2002.
69. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi/ 1-qism: Pedagogika nazariyasi. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.
70. To’raqulov Yo. X. va bosh. «Umumiy biologiya», T.: “Sharq”. 1999.
71. Uitto A., Juuti K., Lavonen J., Meisalo V. Students interest in biology and their out of-school experiences // JBE. - 2006. - 40. - P.124-129.
72. Vauras M, Volet S. The study of interpersonal regulation in learning challenges the research methodology // Routledge: New York. NY, USA. - 2013. - P.1-13.
73. Xalilov M.Sh. Masofaviy ta’limni zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 194-197.
74. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat / – T.: “Tafakkur-bo’stoni” nashriyoti. 2011.
75. Xolnazarova M.X., Muxliboyev M.Q. Yosh va pedagogik psixologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 208 b.
76. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. -T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
77. Yo’ldasheva G., Karimova G. Ta’lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi moduli bo’yicha o’quv-uslubiy majmua // Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent – 2018. - 173-b.
78. Yo’ldoshev J.G’., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari T.: O’qituvchi, 2004.

79. Yo’ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar / – T.: “Moliya-iqtisod” nashriyoti, 2009.
80. Zaripova N.E. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda oilaning ta’siri / “Iqtisodiy ta’lim rivojlanishining muammolari va istiqbollari” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to’plami, - Toshkent. – 2015. – B. 167-171.
81. Zufarov Sh.M. Pedagogik innovatika (o’quv qo’llanma). – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 140 b.
82. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti - www. tdpu. uz
83. www. pedagog.uz

GLOSSARIY

(tayanch iboralarning izohli lug'ati)

Dars tahlili – o'quv jarayonini bir butun yaxlit holda yoki muayyan bo'laklarga bo'lib baholash.

Davlat ta'lim standarti - davlat tomonidan umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan me'yoriy talab, ta'limning zarur, yetarli darajasi va o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablari majmuasi.

Diniy dunyoqarash - ilohiy va dunyoviy tushuncha va tasavvurlar mushtarakligini ifoda etuvchi ma'rifiy qarash.

Dunyoqarash (arab. - jahon, olam + qarash) - ta'lim oluvchilarning dunyo va insonning undagi o'rni, o'z atrofidagi voqelik va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi. Dunyoqarash shaxsning e'tiqodi, ideali, bilish tamoyillarini ifodalaydi.

Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

Interfaol metod - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metod.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Kompetentlik (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma, malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

Motivatsiya – bu biologik jihatdan insonning irsiy va to'plangan tajribasi asosida individual va guruhiy ravishda ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan, undaydigan tuyg'u.

Pedagogik mahorat - pedagoglarga o’quv faoliyatida va undan tashqari faoliyatda ham zarur bo’lgan umumiy pedagogik bilim, ko’nikma, malakalar majmui.

Tarbiya - shaxsni muayyan yo’nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ta’sir ko’rsatadigan ijtimoiy munosabatdir.

Ta’lim berish – ta’lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo’lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir.

Ta’lim metodi – bu ta’lim jarayonida pedagog va ta’lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir.

GLOSSARIY

O’zbekcha	Ruscha	Inglizcha
Metod	Метод	Method
Dunyoqarash	Мировоззрение	Worldly-minded
Ta’lim	Образование	Education
Tarbiya	Воспитание	Good manners
Kompetentlik	Компетентность	Competence
Motivatsiya	Мотивация	Motivation
Interfaol metod	Интерактивный метод	Interactive method
Pedagogik mahorat	Педагогическое мастерство	Pedagogical skill
Dars tahlili	Анализ урока	Lesson analysis
So’rovnoma	Анкета	Written request
Suhbat	Интервью	Discussion
Tafakkur	Мышление	Thought
Tadqiqot	Исследования	Research
Tizim	Система	List
Xalqaro	Международные	International
Tabiiy-ilmiy	Естественно-научный	Natural Science
Malaka	Квалификация	Small axe
Maqsad	Цель	Objective
Omil	Фактор	Cause